

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQTA'LIM VA ZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TABIATSHUNOSLIK” FAKULTETI

«GEOGRAFIYA VA UNI O'QITISH METODIKASI»

KAFEDRASI

**Geografiya darslarida “Geografik maydonchadan”
foydalanishning amaliy ahamiyati mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari» ta'lim
yo'nalishi bitiruvchi 4 kurs “A” guruh talabasi
Sodiqova Saltanat Xoliqulovna.

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi. Abdiyeva. Z. A.

Navoiy-2014

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TABIATSHUNOSLIK FAKULTETI
«GEOGRAFIYA VA UNI O`QITISH METODIKASI» KAFEDRASI

**Geografiya darslarida “Geografik maydonchadan” foydalanishning
amaliy ahamiyati mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: “Geografiya va iqtisodiy bilim
asoslari” ta’lim yo’nalishi IV-bosqich
talabasi Sodiqova Saltanat.

ILMIY RAHBAR:

Kat. o`qit. Abdiyeva. Z.A.

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o`tdi.

_____ sonli bayonnomasi «_____» _____2014 yil

NAVOIY – 2014

Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiatshunoslik fakulteti
«Geografiya va uni o`qitish metodikasi» kafedrasining
2-sonli yig`ilish bayonnomasidan

K O' C H I R M A

Navoiy shahri

28 sentabr 2013 yil

Qatnashdilar: g.f.n. katta o`qituvchi S. R. Shodiyev, dotsentlar Yu. B. Raxmatov, B. H. Kalonov, katta o`qituvchilar: Z. A. Abdiyeva, B. S. O`rinov, X. T. To`xtayeva, M. M. Qodirova, Sh. Sh. Norov, Yo. R. Buranov, o`qituvchilar: A. B. Jonzoqov, S. Q. Negmatov, kabinet mudirasi Sh. Fayziyeva.

K U N T A R T I B I

2013-2014 o`quv yilida “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta’lim yo`nalishi bitiruvchi kurs talabalarining bitiruv malakaviy ishlari mavzulari va ilmiy rahbarlarini tasdiqlash to`g`risida

E S H I T I L D I:

Kafedra mudiri, g.f.n., katta o`qituvchi S.R. Shodiyev:** Bitiruv malakaviy ishi mavzulari Oliy va o`rta maxsus ta’lim vazirligining 2010 yil 9 iyundagi № 225- sonli buyrug`iga binoan **“Oliy o`quv yurtlarida bakalavr bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo`yiladigan talablar” asosida tanlangan.

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo`nalishi IV-kurs “A” guruh talabasi Sodiqova Saltanat Xoliqulovna mavzular orasidan **Geografiya darslarida “Geografik maydonchadan” foydalanishning amaliy ahamiyati** mavzusini tanladi va uning ilmiy rahbari sifatida **katta o`qituvchi Z.A.Abdiyeva** belgilandi.

QAROR QILINDI:

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo`nalishi IV-kurs “A” guruh talabasi **Sodiqova Saltanat Xoliqulovna** mavzular orasidan **Geografiya darslarida “Geografik maydonchadan” foydalanishning amaliy ahamiyati** mavzusini tanladi va uning ilmiy rahbari sifatida **katta o`qituvchi Z.A.Adiyeva** tayinlansin.

Kafedra mudiri:

g.f.n., kat. o`qit. S.R. Shodiyev

Oliy o`quv yurti

fakulteti

kafedrası

yo`nalishi

Tasdiqlayman _____

Kafedra mudiri _____

20____ **yil** _____

MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO`YICHA TOPSHIRIQ

Talaba _____

(familiyasi, ismi, sharifi)

1. Bitiruv ishining mavzusi _____

“ _____ ” _____ 20____ yil. Kafedra majlisida tasdiqlangan.

2. Bitiruv ishini topshirish muddati _____

3. Bitiruv ishini bajarishga doir boshlang`ich ma`lumotlar _____

4. Hisoblash – tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro`yxati)

Bitiruv ishi rahbari _____
 (familiyasi, ismi, sharifi) (imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim _____
 (familiyasi, ismi, sharifi) (imzo)

Topshiriq berilgan sana ____ 20__ yil

Navoiy davlat pedagogika instituti

Tabiatshunoslik fakulteti

«Geografiya va uni o`qitish metodikasi» kafedrası

2014 yil “___” _____

№ _____ yig`ilish bayoni

K O` C H I R M A

Qatnashdilar: Kafedraning barcha professor-o`qituvchilari

K U N T A R T I B I:

2013-2014 o`quv yili “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta`lim yo`nalishi bo`yicha yozilgan bitiruv malakaviy ishlar muhokamasi va ularni himoyaga tavsiya qilish to`g`risida

E S H I T I L D I:

Bitiruvchi _____ning

Mavzusi: _____

Ilmiy rahbar:

Bitiruv malakaviy ishi Davlat ta`lim standartlari va dasturlari talablariga mohiyat va mazmun jihatdan mos keladi.

Q A R O R Q I L I N D I:

Bitiruvchi _____ning

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi Davlat Attestatsiya Komissiyasiga himoya uchun tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri:

kat. o`qit. Yo.R. Buranov

Davlat attestatsiya komissiyasining

RAISIGA

Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiatshunoslik fakulteti “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta’lim yo’nalishi kunduzgi bo’lim IV- kurs “ ____ “ guruh talabasi _____ning

mavzusidagi Bitiruv malakaviy ishi himoya qilish uchun yuboriladi.

Reyting qaydnomasidan ko’chirma, Bitiruv malakaviy ishi rahbarining xulosasi, kafedraning rahbarining tasdiqlash va ishni himoyaga tavsiya etish haqidagi xulosasi, ichki va tashqi taqrizlar ilova qilinadi.

Fakultet dekani:

b.f.n. Jumaboyev B.Ye.

**Navoiy davlat pedagogika instituti,
«Geografiya va uni o`qitish metodikasi» kafedrasining
Bitiruv malakaviy ishi haqidagi**

XULOSASI

_____ kurs “ ____ ” guruh talabasi _____ning

mavzusidagi Bitiruv malakaviy ishi kafedra yig’ilishida muhokama qilingan va Davlat Attestatsiyasi komissiyasiga himoyaga tavsiya etiladi.

Kafedra mudiri:

kat. o`qit. Yo.R. Buranov

Mundarija:

Kirish.....

I.Bob. Umumtaʼlim maktablarining tabiiy geografiya fanlarida oʻtkaziladigan tajriba va kuzatish materiallariga asoslangan taʼlimning ahamiyati.

1:1 Tabiiy geografiya fanlarida kuzatish metodi materiallariga asoslangan taʼlimning ahamiyati.....

1:2 Tabiiy geografiya fanlarida tajriba metodi materiallariga asoslangan taʼlimning ahamiyati.....

1:3 Tabiiy geografiya fanlarida amaliy ish metodi materiallariga asoslangan taʼlimning ahamiyati.....

II.Bob. Maktab tabiiy geografiya darslarida geografiya maydonchasida kuzatish, tajriba va amaliy ish darslarida foydalanish metodlari.

2.1 Maktab geografiya maydonchasidan kuzatish darslarida foydalanish metodlari.

2.2 Tabiiy geografiya darslarida geografiya maydonchasida tajriba darslarini oʻtish metodlari.....

2.3 Sinov darsi: Ob-havo qanday boʻlishini oldindan aytish.....

2.4 Sinov darsi: Yerning quyosh arofida aylanishi.....

Xulosa.....

Adabiyotlar.....

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: O`zbekiston Respublikasining mustaqil davlat maqomini qo`lga kiritishi, xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonch ruhida shakillandan ilmiy istiqlol mafkurasi xalq xo`jaligini boshqarishning bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslanishi hamda ta`lim tarbiyaning siyosatdan holi bo`lishi, xususan o`rta umum ta`limni jumladan maktab geografiyasi ta`limning tarkibi va mazmunini tubdan qayta qurishni taqozo etadi. Shunday qilib, XXI-asrning ijtimoiy- ruhiy xayoti, ilmiy uslubiy ongi, sharoiti bizdan avvalambor geografiya fanini zamon talablariga shakllantirish va takomillashtirish hamda yetuk mutaxasislarni tayyorlashni talab etmoqda... “Respublikamizning ta`lim to`g`risida” giqonunida va vazirlar mahkamasining 1998-yil 13-maydagi “O`zbekiston Respublikasida umumiy o`rta ta`limni tashkil etish to`g`risida” gi qaror hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da o`z aksini topgan. Geografiya darslarini samaradorligini oshirish “Yosh avlodga fan asoslaridan chuquv va mustahkam bilim berish, shu bilimlarni amaliyotga qo`llash ko`nikmalari va mahoratini hosil qilish, o`quvchi dunyo qarashini shakllantirish, hozirgi davr geografiya darslarining o`zgarmas vazifasidir” bu vazifani hal etish uchun geografiya ta`limida tajribani aniq, izchil o`tkazish, o`quvchilarni o`rab turgan moddiy dunyoni bilib olish, ne`matlarini e`zozlashga o`rgatish lozim.

Geografiya ta`limida atrof-tabiatni mushohada etishga yetarli e`tabor qilish talab etiladi. Geografiya o`qituvchisi tabiatga va xo`jalik ob`ektlariga muntazam ravishda ekskursiya o`tkazib boorish lozim, ekskursiyani geografiya maydonchasida o`tkazish yaxshi natijalar beradi, geografiya dunyo haqidagi fan. Uzoq joylarga ekskursiya o`tkazish imkoniyati yo`q ekan, ular tabiati va xo`jaligi haqidagi zarur geografik tasavvur va tushunchalar hosil qilishda geografiya o`qituvchisiga ko`rgazmalik vositalari ko`maklashadi. Geografiya ta`limi samaradorligini oshirish yo`li ko`rgazmalidir. Atoqli rus geografi – metodisti H. H. Baranskiy “Boshqa fanlarning birortasi geografiyadek ko`rgazmalik maroqlikka muhtoj emas” – deb ko`rsatgan. Mening bitiruv malakaviy ishimda maktab

geografiya maydonchasida tajriba darslarini o'tkazish va undan tabiiy usullarni ochib berishni o'z oldimga maqsad qilib qo'ydim.

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan ta'lim - tarbiya samaradorligini oshirish jahon ta'lim standartlari darajasida bilim berish orqali har tomonlama yetuk ijodkor ma'naviy boy, kasb-hunarli, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalangan, o'z mustaqil fikriga ega barkamol shaxsni kamolga yetkazish kabi vazifalarni hal etishda ta'lim muassasalarining pedagogik jamoasi xususan har bir fan o'qituvchisi o'z pedagogik faoliyatini tubdan o'zgartirishi lozim.

Zamon talabiga muvofiq holda har bir fan o'qituvchisi o'zining mutaxassisligini chuqur o'zlashtirgan, pedagogik-psixologik hamda metodik bilim, ko'nikma va malakalarni puxta egallagan, ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshiradigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor va ularni ta'lim jarayonida qo'llay olish malakasiga ega bo'lish lozim.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiliklari Mamlakatimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq umumiy o'rta ta'limning barcha bo'g'inlarida o'quvchilarning muntazam bilim olishi, ularda mustaqil ijodiy fikrlash, kasb tanlashga va atrof muhitga ongli munosabatni hosil qilish, milliy va umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilish o'z Vataniga, xalqiga sadoqat, mehr — muhabbat ruhida tarbiyalash tamoyillari aks ettirilgan. Shu bilan birga har tomonlama kamol topgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda puxta o'zlashtirgan, jamiyat, davlat va oila oldidagi o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyalar belgilangan. Ushbu pedagogik g'oya ta'lim tizimi oldiga: ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan hududiy demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslash; kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy — iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan jamiyat ehtiyojlaridan, fan madaniyat texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish; ta'lim oluvchilarni ma'naviy –axloqiy tarbiyalashning samarali

shakllari va uslublarini ishlab chiqish hamda joriy etish vazifalarini ko'ndalang qilib qo'ydi.

Shuningdek, Bitiruv malakaviy ishimda umumta'lim maktablarida o'qitiladigan tabiiy geografiya fanining samaradorligini oshirishning yo'llari kuzatish, tajriba va amaliy ish darslarida qolaversa yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan noan'anaviy dars usullari va ularni qo'llash, ta'lim jarayoniga tizimli yondashish kabi masalalar ochib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish bo'yicha vazifalar:

1. Mavzuning dolzarbligini ilmiy asoslash;
2. Mavzuning nazariy qismini o'rganish va kerakli manbalarni tahlil qilish;
3. Mavzuning asosiy amaliy qismi bo'yicha materiallar to'plash, ularni tahlil qilish, fikr – mulohazalar yozish;
4. Mavzu bo'yicha 1 soatlik dars ishlanmasini tayyorlash.

Olingan natijalarni amaliyotda foydalanishga tavsiya etish: Bitiruv malakaviy ishining asosiy natijalaridan "Geografiya darslarida "Geografiya maydonchadan " foydalanishning amaliy ahamiyati" mavzusida " mavzusida bo'lib, umumta'lim maktablarida tabiiy geografiya darslarini noan'anaviy usullaridan foydalanib dars o'tish bilan bog'liq. Malakaviy bitiruv ishim kirish, asosiy qism, va xulosadan iborat bo'lib, uning 1Bob. Umumta'lim maktablarining tabiiy geografiya fanlarida o'tkaziladigan tajriba va kuzatish materiallariga asoslangan ta'limning ahamiyatini. 3 ta kichik mavzular asosida Asosiy qismning II.Bob. Maktab tabiiy geografiya darslarida geografiya maydonchasida kuzatish, tajriba va amaliy ish darslarida foydalanish metodlarini 3 ta kichik mavzular asosida noan'anaviy dars ishlanmalaridan foydalanib atroflicha ochib berilgan

Dars jarayonida noan'anaviy darslardan "Aqliy hujum" metodidan foydalandim. Bu kabi tabiiy geografiya darslarida qo'llash ham o'rinli deb o'ylayman, chunki 5-sinf o'quvchilarning fikrlash doirasi, bilim saviyasi, iqtidori endi

shakllanib, o'sib kelayotgan yoshlardan iborat. Bu metod orqali ularni mustaqil fikrlashga, o'z ustilarida tinimsiz izlanishlariga undaydi deb o'ylayman. Ushbu ilmiy ishida nihoyatda qiziqarli va izlanishni talab etadigan, o'quvchini o'z ustida ishlashga majbur etadigan "Geografiya darslarida "Geografiya maydonchadan" foydalanishning amaliy ahamiyati" mavzusida noan'anaviy dars ishlanmasini havola etdim. Bunda "Aqliy hujum, BBB" noan'anaviy dars metodlaridan foydalandim.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy natija va xulosalaridan Navoiy shahri hamda viloyat umumta'lim maktablarining tabiiy geografiyasini o'qitishda va amaliy mashg'ulotlarida ham foydalanilishi nazarda tutiladi.

Tabiiy geografiya mavzularini o'qitishda qo'llanayotgan ko'rgazmali vositalar, jadvallar, grafiklar va asboblardan foydalanib, o'quvchilar dunyo qarashini shakllantirishga erishish.

Geografiya maydonchasida o'tkazilgan tadqiqot darslarini o'tkazishdan maqsad, yangi turdagi pedagogic texnologiyalardan, turli yangi axborotlarni egallashda aloqa vositalari, tizimidan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Hozirgi paytda geografiya fanini mazmun jihatdan yangicha o'qitish ham zarur, ham zamon talabidir.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida Umumta'lim maktablarining tabiiy geografiya fanlarida o'tkaziladigan tajriba va kuzatish materiallariga asoslangan ta'limning ahamiyati. 3 ta kichik mavzular asosida yoritilgan bo'lsa, asosiy qismning II bobida Maktab tabiiy geografiya darslarida geografiya maydonchasida kuzatish, tajriba va amaliy ish darslarida foydalanish metodlari.

4 ta kichik mavzular asosida noan'anaviy dars ishlanmalaridan foydalanib atroflicha ochib berilgan. Bu orqali o'quvchilarni darsga qiziqtirish, malakaviy bitiruv ishidan joy olgan 1 ta mavzuni yuqori darajada ifodalovchi 1 ta karta sxema, chizmalar, shartli belgilar, rasmlar, jadvallar, muommoli topshiriqlar usuli va 2 ta ochiq dars ishlanmasi bitiruv malakaviy ishining mazmunini yanada boyitgan.

I.Bob. Umumta'lim maktablarining tabiiy geografiya fanlarida o'tkaziladigan tajriba va kuzatish materiallariga asoslangan ta'limning ahamiyati.

1.1. Tabiiy geografiya fanlarida kuzatish metodi materiallariga asoslangan ta'limning ahamiyati.

Tabiiy geografiyadan o'tkaziladigan tajribalar muhim bilim manbalaridan hisoblanadi. Kuzatish va tajriba materiallariga asoslangan ta'limni ahamiyati katta. Sinfдан tashqari ishlar umumta'lim maktablarida juda muxim ta'limiy – tarbiyaviy ahamiyatga ega. shuning uchun sinfdan tashqari ishlar o'quv jaryonining ajralmas qismi hisoblanadi. Sinfдан tashqari ishlarga geografiya to'garagri, sinfdan tashqari o'qishlar, geografik konferintsiyalar, geografik kechalar, geografik xaritalar geografik sektsiyalar, geografik jamiyatlar, o'lkashunslik muzeyi, geogrvfik klublar kiradi. Sinfдан tashqari ishlar io'quvchilarni bilish faoliyatini rivojlanishida, mustaqil ishlarni ko'nikmalarni shakillantiradi, o'quvchilarni tabiatga va o'z vataniga muhabbat ruxida tarbiyalashda, o'quvchilarni o'z vatanlarini yutuqlaridan faxirlanish tuyg'ularini shakillantirishda muxim ahamiyatga ega, shuning uchun sinfdan tashqari ishlarni maqsadi va vazifalari aniq ishglab chiqilsa ularni samarasi juda yuqori bo'ladi. Sinfдан tashqai ishlarning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat: o'quvchilarni tabiatni tushunish va tabiatni sevishga o'rgatish; o'z yashab turgan joyi xaqida bilimlarini chuqurlashtirish; o'quvchilarni tabiiy muxit xaqidagi tasavvurlarini rivojlantirish; o'quvchilarga geografiya faniga qiziqish uyg'otish; o'quvchilarni geografiya tadqiqot usullari bilan tanishtirish va h.k. O'quvchilarni tabiatni tushunish va tabiatni sevishga o'rgatish geografik to'garaklarda, geografik kechalar, geografik xaftalar va sinflardan tashqari ishlarda olib boriladi. Unda o'quvchilar o'qituvchini topshirig'iga binoan tabiat haqida turli ilmiy ommabop va badiiy adabiyotlar bilan tanishadi. Mazkur adabiyotlar bilan tanishish va berilgan

topshiriqlarni bajarish davomida ularda tabiatning asosiy tarkibiy qismlari, tabiatni qo'riqlash haqida bilimlar shakillanadi.

Tabiat va tabiatni seevish bo'yicha berilgan topshiriqlarda qo'riqxonalar, milliy bog'lar, buyutmalar, yo'qolib ketgan va yo'qolish arafasida turgan hamda himoya qilinadigan o'simlik va hayvonlar dunyosi, noyob tabiat yodgorliklari haqida ma'lumotlar muxims o'rin tutadi.

O'zi yashab turgan joy haqida bilimlarni chuqurlashtirish. O'zi yashab turgan joy haqida bilimlarni chuqurlashtirish sinfdan tashqari ishlarni bajarishda o'tkazilishi mumkin. Buning uchun o'qituvchi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ma'lumotlar to'plashni o'quvchilarga topshirmog'i lozim:

- joyni tabiiy geografik sharoiti xaida: geografik joylanishi, geologik tuzilishi; foydali qazilmalari; relefi; iqlimi; ichki suvlari; tuprog'i, hayvonot dunyosi;
- joyning iqtisodiy geografik sharoiti xaqida: iqtisodiy geografik o'rni; tabiiy resurslari; axolisi; xo'jaligi (sanoati, qishloq xo'jaligi), transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari;
- rekratsion va turistik obektlari.

Mazkur yo'nalish bo'yicha o'quvchilar aloxida – aloxida topshiriqlar bkerishi mumkin. Joyning tuprog'i, o'simligi va hayvonot dunyosi haqida ma'lumotlar bo'lmasa o'quv sayoxatlari davomida yig'ilgan ma'lumoitlardan foydalanish mumkin.

Mazkur maqsadni bajarish davomida o'quvchilar o'z yashayotgan joylari xaqida bilimlarni yanada chuqurlatirishadi. O'quvchilarni tabiiy muxit xaqidagi tasavvurlarini rivojlantirish. O'quvchilarni tabiat xaqida, o'z yashash joyini geografik sharoitini o'rganish jarayonida tabiiy muxit xaqida tasavvurlari yanada kengayadi va rivojlanadi. Tabiatni asosiy tarkibiy qismlarini (litosfera, gedrosfera, atmosfera, beosfera) o'rganish davomida o'quvchilarni tabiiy muxit xaqida tasavvurlari kengaya boshlaydi.

O'quvchilarda geografiya faniga qiziqish uyg'otish. Geografiya to'garagida, geogrrafik kechalarda va boshqa sinfdan tashqari ishlarda geograf sayox va olimlar, yirik geograf kashfiyotlar, materiklarni kashf qilish tarixi, xalq xo'jaligini

rivojlanishida geografiyani o'rni xaqida ma'lumotlarni o'rganish davomida o'quvchilar geografiya faniga bo'lgan qiziqish ortib boradi. O'qituvchilarni geografik tadqiqot usullari bilan tanishtirish muxim ahamiyatga ega. mazkur ishlarni xam asosan geografiya to'garagida olib boriladi. Unda turli xil geografik tadqiqotlar xaqida tugarak a'zolari ma'lumotlar tayyorlab ular asosida ma'ruzalar tayyorlashadi. Sinf dan tashqari ishlar quyidagilarni amalga oshirish imkon beradi:

- tarbiyaviy ishlarni olib borishga imkon beradi; Sinf dan tashqari ishlarda o'quvchilar o'z yashash joyining tabiati, xo'jaligi va aholisi haqida chuqur bilimlarga ega bo'lishadi. Bu esa ular da vatanparvarlik hamda chuqur bilimlarga ega bo'lishadi. Byuu esa ular da vatanparvarlik hamda vatan bilan fahirlanish tuyg'ularini shakillanishiga imkon beradi;

- sinf dan tashqari ishlar olingan bilimlarni xayot bilan bog'lashga nazariy bilimlarni buyuk O'zbekistonni buyuk davlatga aylantirish amaliyoti bilan bog'lashga imkon beradi;

- sinf dan tashqari ishlar o'quvchilarni kasbiy va mexnatga tayyorlashga imkon beradi, ular da mustaqillik xususiyatlarini shakilantiradi. Bunday ishlar to'garak ishlarini olib borishda, muxim amaliy tadbirlarni, tajriba va eksperimentlarni o'tkazishda amalga oshiriladi;

- sinf dan tashqari ishlar o'quv ishlari bilan chambarchas bog'langan. Chunki inf dan tashqari ishlarda o'quvchilarni geografik bilim va ko'nikmalari yanada chuqurlashadi;

- infdash tashqari ishlar mkaktabdan tashqari ishlar bilian chambarchas bog'langan. Maskur bog'liqlik ushbu ishlarni olib borish shaklida mazmunida va metodlarida ifodalanadi. Maktabdan tashqari ishlarni inf dan tashqari ishlardan farqi ular maktabdan tashqai tashkilotlar tomonidan uyushtiriladi va amalga oshiriladi (yoshlar uyi, yosh turistlar uyushmalari va x.k).

Kuzatish: kuzatish ob'yekt va hodisa (joy) larni tabiiy holatda idrok etish maqsadida o'tkaziladi. O'quvchilar kuzatish tufayli geografik hodisa va joylar bilan bevosita tanishadilar. O'qituvchi kuzatish natijalari va o'quvchilarning

hayot tajribalariga tayanib geografik tushunchalarni to'g'ri tushintira oladi. Kuzatish o'quvchilarning bilim qobiliyatini rivojlantiradi, muntazam kuzatish natijasida ular mustaqil xulosa chiqarishga o'rganadilar. Kuzatish – atrofimizni o'rab turgan tabiat hodisalarini bir biriga bog'liq ekanligini tushunishga imkon beradi. Kuzatish, o'quvchilarda materialistic dunyoqarashni shakllantiradi.

Geografik hodisa va joylarni sinfda, geografik maydonchasida, o'z shahri yoki qishlog'i chekkasida, nihoyat o'z oblasti yoki respublikasida kuzatish mumkin. Ba'zi bir hodisaning, masan ob havoni uzoq vaqt kuzatishga to'g'ri kelsa, boshqa birini, masalan daryo va ko'llarning muzlashi, quyoshning gorizantal balandligini muayyan vaqt ichida yana boshqa birini masalan, bo'ron, chaqmoq quyunlarni ro'y bergan vaqtdagina kuzatish to'g'ri keladi. Geografiya asoslarini o'rganishga eng ko'p zarur bo'ladigan astranomik, materialogik va kompleks kuzatishlarga katta e'tabor berish lozim.

Bilish manbalariga ko'ra sinfdan tashqari ishlarni olib borishni quyidagi usullarini ajratish mumkin (Yu.A. Valiein, 1985)

-og'zaki usullar (verbal) ma'ruza, suxbat, intervyu. Ushbu usullarda bilish manbai bo'lib o'qituvchini so'zi hisoblanadi. Suxbatlar, ma'ruzalar, intrvyularni olimlar, ekspedettsiya xodimlari, davlat muassalari xadimlari, xalq xo'jaligi mutaxasislari olib boradi;

-amaliy usullar ular bitta yoki o'quvilar guruhi bilan o'tkaziladigan amaliy ishlarda qo'llaniladi. Mazkur amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar geografik asbob uskunalar va jixozlardan foydalanish, geografik xaritalar bilan ishlashni, atrof muxitni muxofaza qilishni amalda o'rganishadi;

kuzatish usullari. Ushbu usullarni tabiatni va xo'jalikni kuzatishda qo'llash mumkin. Bu esa geografik voqea va xodisalar xamda borliqlarni xar tomonlama o'rganishga ikon beradi. Tabiatni va xo'jalik faoliyatni kuzatish muntazam va vaqtincha bo'lishi mumkin. Masalan, ob-havoni daryo va ko'l satxini er po'stini harakatlarini muntazam kuzatib boriladi. Tabiiy geografik jarayonlar, iqtisodiy geografik jarayonlarni ma'lum bir vositalarda kuzatish mumkin. Masalan, surilmani rivojlanishi, daryo erroziyasi, er yuzasini cho'kish qishloq xo'jalik yoki

sanoat maxsulotlarni ishlab chiqarish va boshqalarni ma'lum vaqtda ko'zatisht mumkin;

-tajriba –eksperemental usuli tabiatda kuzatish qiyin bo'lgan geografik voqea va hodisalarni kuzatish uchun qo'llaniladi. Masalan, cho'kindijinslarni hosil bo'lishi; qirg'oqlarni to'lqin ta'sirida emirilishi, quduqlarni tuzilishi va shakllanishini namoyyish qiladigan masalalar;

Kuzatishni muvofaqqiyatli o'tishi uchun o'quvchilarga kuzatishning maqsadi va mazmunini tushuntirish, kuzatish ob'ektlarini ko'rsatish va kuzatish olib boorish yo'llari haqida tegishli ko'rsatmalar berish lozim. Kuzatish ishlari programma asosida olib boriladi. O'qituvchi kuzatish olib borishi uchun zarur bo'lgan asboblardan masalan, kompos, termometr, flyuger, skafis va boshqalardan qanday foydalanish kerakligini tushuntiradi. O'quvchilar kuzatish natijalarini hisobga olib boorish yo'llarini bilishi kerak.

Kuzatish o'quvchilarga geografik hodisalar o'rtasidagi aloqalarni (masalan, daryo suvining ko'payishi yog'in va qorning erishiga bog'liqligi) aniqlashga imkon beradi.O'quvchilar kuzatuvni doimo kuzatib borishi kerak. Kuzatuv yakunlarini o'quvchilarning o'zlari ishlab chiqarishga erishish muhim ahamiyatga ega. Agar o'quvchialr o'z kuzatish natijalarining amaliy mohiyatini tushinib olsalar, ularning kuzatishga bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi. Geografik kuzatish mazmuniga ko'ra bir necha xil bo'lishi mumkin: astranomik, materialogik va fanalogik kuzatishalar.

Astranomik kuzatish quyoshning chiqishi va botishi, gorizondga nisbatan quyosh balandligini o'zgarishi kabi kuzatishlarni, oy farazlarini o'zgarishini o'z ichiga oladi. Bunday kuzatishlar geografik qonunlarning tarkib topishida katta ahamiyatga ega. Chunonchi, quyoshning gorizantdan balandligini kuzatishda:

- 1) Quyoshning ko'rinma harakati Yerning quyosh atrofidagi yillik va sutkalik harakati oqibati ekanligi.
- 2) Havo temperaturasining sutka davomidagi o'zgarishi, Quyoshning gorizontdan balandligiga bog'liqligi.
- 3) Quyoshning tush vaqtidagi balandligi yil davomida o'zgarib turishi.

4) Quyoshning gorizondan balandligiga bog`liq holda havo temperaturasining yil davomida o`zgarib borishi kabi tushuncha va bilimlarning shakllanib borishiga imkon beradi

Kuzatish - geografik borliq, voqea va xodisalarni bevosita tabiiy sharoitda idrok etishga va o`rganishga imkon beradi. Natijada o`quvchilarni bilish qobiliyati rivojlanadi. Kuzatish sinfda, geografiya maydonchasida, o`z shahari yoki qishloq chekkasida o`z viloyati va tumani doirasida o`tkazilishi mumkii. Geografik kuzatishlar mazmuniga ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi: astronomik, meteorologik va fenologik.

I. Astronomik kuzatishlar quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- quyoshning chiqishini va botishini kuzatish;
- yulduzlar va sayyoralarni kuzatish;
- qutb yulduzini aniqlash;
- oy davrlarini o`rganish;
- * iloji bo`lsa observatoriyadagi asbob - uskunalar bilan tanishish;
- planetalariga sayohat.

II. Meteorologik kuzatishlar

Meteorologik kuzatishda ob-havoni kuzatish alohida o`rin tutadi. Ob-havoni kuzatish maktablarda 2 — sinfdan boshlanadi. Ob-havoni kuzatish quyidagi bosqichlardan iborat.

*o`quv yilining boshida ob-havoni kuzatishni tashkil va kuzatish usullari bilan maxsus darsda o`quvchilarni tanishtirish;

*kuzatishdan avval meteorologik asboblarni bilan ishlash ko`nikmalarini xosil qilish kerak;;

*mahsus bo`limlarni o`tgunga qadar oddiy meteorologik kuzatishlar olib boriladi (harorat, shamol, bulutlar, yoq`ingarchilik);

*iqlim xaqida mahsus mavzular o`tib bo`lingandan keyin bosim, shamol kuchi, (tezligi), bulutlarning xillari xaqida kuzatishlar olib boriladi Havoning xaroratini va shamol yo`nalishini dastlab bir kunda bir marotaba kuzatish mumkin, bulutlilik va yoq`inlarni kun davomida kuzatish mumkin.

Quyoshning gorizontdan balandligi oyda bir marta soat 13 da o'lchanishi mumkin;

Shamolning yo`nalishi va kuchini quyidagicha aniqlash mumkin.

- Shimoldan, kuchi 3 ball
- shimoli-sharqdan, kuchi 2 ball;
- sharqdan, kuchi 6 ball;
- q`arbdan kuchi 5 ball;
- janubi-q`arbdan, 4 ball;
- janubi-sharqdan, 7 ball.

Shamolning kuchi «o`q» lardagi qanot bilan ko`rsatiladi. Uzun qanoat - 2 ball, kalta qanoat - ball.

* Bulutlik quyidagicha belgilanadi

* Havo ochiq

* Osmon chala bulut

* Osmon bulut bilan to`liq qoplangan

* Yoq`inlar quyidagi belgilar bilan ko`rsatiladi

* Yomq`ir

* Qor

* Tuman

* Qirov

* Do`l

* Shudring

U1-UP sinfni ikkinchi yarmidan boshlab ob-havo quyidagi jadval asosida kuzatib boriladi:

Oy kun	va havo xarorati	xavo bosimi	shamol- ning yo`na- lishi va kuchi	bulutlik	yoq`inlar	Quyosh- ning gorizont- dagi balan- ligi	Izoh
-----------	------------------------	----------------	--	----------	-----------	--	------

Meteorologik kuzatishda ob havoni kuzatish alohida o`rin egallaydi. Ob- havoni kuzatish ishlari III-sinf dan boshalab, VIII sinflarda ham davom ettiriladi.

O`qituvchi o`quvchilarning ob-havoni kuzatishni tashkil etish va kuzatuv usullari bilan o`quv yili boshida mahsus darsda tanishtiradi. Ob-havoni kuzatish va uni ta`riflash meteorologik asboblardan bilan ishlash ko`nikmalarini hosil qilishda katta ahamiyatga ega. Bunday kuzatish o`quvchilarning atmosfera hodisalari haqidagi tasavvurlari va ob-havo bilimlarini aniqlash vositalaridan biridir. Ob-havoni V- sinfda, shuningdek, VI-sinfda “atmosfera” mavzusini o`rgangunga qadar oddiy (havo temperaturasi, shamollarning yo`nalishi, bulutlilik va yomg`irlarni va barcha yog`inlarni) kuzatish kifoya qiladi.


Keyinchalik havo bosimi, shamol kuchi quyoshning gorizontdan balandligi kabi murakkab kuzatishlar olib boriladi. Havo temperaturasi va havo yo`nalishini dastlab bir kunda bir marta (1-smena o`quvchilar darsdan so`ng, 2-smena darsdan oldin) kuzatadilar. Bulutlilik va yog`inlar kun kun davomida kuzatib so`ng belgilanadi. Oyda bir marta (oyning 20-24- kunlarida) soat 13⁰⁰ da kuzatiladi.

Shamolning yo`nalishi va kuchi quyidagicha belgilanib, hisoblanib boriladi: O`quvchilar ob-havo holatini maxsus devoriy “ob-havo kundaligi” ga va geografiya daftarlariga yozib boriladi. VI-sinfning ikkinchi yarim yilidan boshlab ob havo quyidagi jadval asosida kuzatib boriladi. (5-jadval)

Kuzatilgan har oylik ob-havo natijalari ishlab chiqiladi. O`quvchilarni yanada murakkabroq kuzatishga tayyorlash maqsadida: oyning qaysi kunida temperature eng past bo`ladi? Shamol ko`proq qaysi tomonga esadi? Bulutli

va bulutsiz kunlarning nisbati qanday? Yog`inning qaysi turlari yog`adi? Kabi savollarni berish mumkin?

Ob-havoni kuzatish natijalari o`quv yilining oxirida tahlil qilinganda, undagi o`zgarishlar sabablarini va elementlari o`rtasidagi aloqalarni izohlashga alohida e`tibor berish lozim. Kuz, qish, bahor oylarida havoning o`rtacha temperaturasi qanday o`zgaradi? Sabab nima? Quyoshning balandligini o`zgarishi ob-havoga qanday ta`sir ko`rsatadi? Yog`inlar fasllar bo`yicha qanday o`zgaradi? Oylar va fasllarda ob-havoning o`zgarishi bilan qanday qonuniyatlar kuzatiladi.



Fenologik kuzatishlar. Fenologik kuzatish tabiati va tabiat obyektlaridan mavsumiy kuzatishlarni nazarda tutadi. Jonli tabiatning mavsumiy rivojlanishini

kuzatish bilan bevosita bog`liq. Tabiatdagi mavsumiy hodisalarni kuzatishdan ko`zda tutilgan asosiy maqsad quyidagilar:

- 1) Mavsumiy hodisalar har qanday joy tabiatning asosiy xususiyatlaridan iborat ekanligini o`quvchilar ongiga yetkazish.
- 2) Tabiatdagi davriy hodisalarni o`rganish xalq xo`jaligi uchun katta ahamiyatga ega ekanligini o`quvchilarga aniq misollar bilan ko`rsatib berish
- 3) O`quvchilarda tabiatga muhabbat hissi va ularda mustaqil tadqiqotlar olib borish ishtiyoqini uyg`otish
- 4) O`quvchilarni fenologik kuzatishlar olib boirish metodikasi bilan tanishtirish.
- 5) O`simliklar hayoti va hayvonot olamida ro`y beradigan mavsumiy o`zgarishlar mazkur joyning tabiiy iqlim sharoitiga bog`liq bo`lib, davriy takrorlanib turishiga o`quvchilarni ishontirish.
- 6) O`quvchilarda fenologik kuzatishlar havo temperaturasi, o`simliklarning rivojlanishiga, hayvonot olami hayoti, shuningdek inson faoliyati, quyoshning gorizantdan balandligining mavsumiy o`zgarishiga bog`liqligini aniqlashga imkon berishi haqidagi tushunchani shakllantirish.

Fenologik kuzatishlar jonajon tabiat hodisalari orasidagi eng muhim bog`liqliklarni ko`rish imkonini beradi. Masalan, maynaning sayrashi, gunafshaning ochilishi- bahor boshlanishidan darak beradi. Shaftolining gullashi bahordagi kecha-kunduzning tengligiga, olmaning gullashi- tog` oldi rayonlarida suvning ko`payishiga olib keladi. Gilos va qulupnayning pishishi esa yoz boshlanganligidan dalolat beradi, hokazo...

Umuman kuzatishga oid ma`lumotlarga o`quv jarayonidan – yangi materialni o`rganishga, o`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini aniqlashda foydalanib borilsa, o`quvchilarning bilimini aniqlash va mustahkamlashga yordam beradi. Kuzatishga oid ko`nikmalarning amaliy ahamiyati katta.

Kuzatish-tabiatni o`rganishning juda yaxshi usuli, chunki u tabiat haqidagi fanlarni to`plashga, tabiatdagi narsa va hodisalarni tasavvur qilishga imkon beradi.

Kuzatish vaqtida o`quvchilar tabiatdagi narsa va hodisalarni voqeylikda qanday bo`lsa shundayligicha ularga biror bir o`zgarishlar kiritmasdan idrok qiladilar.


Tabiatshunoslik va geografiyaga oid kuzatishlar qisqa va uzoq vaqt davom etadigan bo`ladi. Ularning ba`zilari bir dars mobaynida o`tkaziladi, masalan, suvni haydash yo`li bilan erigan moddalardan tozalash, loyli va qumli tuproqlarning suv o`tkazuvchanlik va am saqlashligi, akvarumdagi baliqning harakati hususiyatlari va hokazolar ustida olib boriladigan kuzatishlar. Boshqa paytlarda bolalarning kuzatishlari uzoq davom etish xarakterida bo`ladi va tabiatda jonli tabiat burchagida geografiya maydonchasida, maktab o`quv-tajriba o`chastkasida, qishloq xo`jaligida, uy sharoitlarida olib boriladi. Masalan, bolalar butun o`quv yili davomida o`z o`lkalarining ob-havosi, quyoshning yer yuzidan balandligi, mahalliy o`simliklar va hayvonlarda ro`y beradigan mavsumiy o`zgarishlar ustida kuzatish ishlari olib boradilar. O`quvchilarning maktab geografiyasi maydonchasidagi kuzatishlari. Geografiya kursi mazmuniga kuzatuvchilardan ancha uzoq masofada bo`lgan tabiat ob`ektlari va hodisalari haqidagi bir qator tushunchalar kiradi.

Tabiatdagi ba`zi ob`ekt va hodisalarni o`quvchilar bevosita kuzata olmaydilar, ular to`grisidagi tushunchalar esa o`zlashtirib olib qo`yish ancha qiyin. Anashunday tushunchalarni tarkib topdirishda maktab geografik maydonchasi katta yordam ko`rsatishi mumkin. Geografiya maydonchasi zarur asboslari bilan jihozlangan o`quvchilarning tabiatshunoslik va geografiyaga doir kuzatish ishlari olib borish va geografiyaga doir kuzatish ishlari olib borish va mashqlar uchun ajratilgan joy.

Maktab geografiya maydonchasini ochiq yerdagi laboratoriya deb atash mumkin. Bu yerda V-sinf o`quvchilari ish olib boradilar. O`quvchilarning atrofdagi tabiatni bevosita kuzatishdan maqsad, jonsiz tabiat hodisalari o`rtasida aloqa va bog`liqliklarni aniqlashdan iborat.

Geografiya maydonchasi uchun 25-25 metrli maydon tavsiya etiladi. Bunday maydonchada tegishli asboblarni va jihozlarni joylashtiriladi, hamda o'quvchilarning mustaqil ishlarini bajarishga hamma sharoitlar yaratiladi. Biroq hamma maktablar ham geografiya maydonchasiga shunday katta territoriyani ajratish imkoniyatiga ega emaslar. Shu sababli geografiya maydonchasini kichikroq 10-10 metr o'lchamda jihozlash mumkin. Geografiya maydonchasi katta daraxt va binolardan soya tushmasligi uchun maktab hovlisining ochiq yerida joylashtiriladi. Shunday qilganda barcha yo'nalishdagi shamollar uchun to'siq bo'lmaydi. Geografiya maydonchasining o'quv tajriba o'chastkasi bilan yonmayon bo'lishi maqsadga muvofiqdir.


Geografiya maydonchasi uchun ajratilgan joy, tekislanadi, devor bilan to'sib



olinadi va asbob uskunalar kerak bo`ladi.

- a) Mo`ljol olish ko`nikmalarini hosil qilishda mo`ljallangan asboblar: Mahalliy meridian va parallellar modeli 2 metr balandlikdagi to`rtta yog`ochga biri meridional yo`nalish bo`yicha ikkinchi parallellar yo`nalishi bo`yicha ikkita sim tortiladi. Meridional bo`yicha tortilgan sim gorizantning shimol va janub parallellar bo`yicha tortilgan sim sharq va g`arb tomonlarni ko`rsatadi. Shunday qilib bu qurilma ayni vaqtda gorizont tomonlarining ko`rsatgichi hamdir.
- b) Astronomik asbob uskunalari: 1) Shimoliy qutb ko`rsatgichi. Yerga qazib o`rnatilgan va balandligi 1m 20 sm bo`lgan yog`och qoziqning uchiga uzunligi 1m 50 sm bo`lgan yog`och taxtacha mahkamlanadi. Yog`ochning uchi shimol tarafga qaratiladi.
- c) Transporterdan yasalgan eklimetr Quyosh, Oy, Yulduzlar va boshqa osmon jismlari (yoritgichlar) ning gorizontdan balandligini, shuningdek joyning kengligini o`lchashga yordam beradi.


Shimoliy yarimsharlarda joyning kengligi qutb yulduzining gorizontdan balandligiga qarab aniqlanadi. O`quvchilarning o`zlari o`qituvchi rahbarligida eklimetr tayyorlashlari mumkin.



d) Oddiy yog`och-gnomon. Maydonchanning tekislangan joyiga 1 metr 30 sm uzunlikdagi yog`och ko`miladi. Uning 30 sm metr yerga ko`miladi, 1 m esa yer yuzasida qoladi.

Reta (tosh bog`langan ip) yordamida yog`och vertical qilib o`rnatiladi. Tush vaqtida yog`ochdan tushayotgan soya shimol tomonni ko`rsatadi. Gnomon yordamida har oyda quyoshning chiqishi va botishi joylari kuzatiladi, shuningdek quyoshning gorizontdan balandligi aniqlanadi.

e) Meteriologik asbob uskunalari: 1) Meteriologik butka. Unga quyidagi asboblari joylashtiriladi: Havoning temperaturasi o`lchash uchun termometr, havo bosimini o`lchash uchun barometr, havoning namligini o`lchash uchun gigrometr. Havoning namligi manashu gigrometr yordamida o`lchanadi. Meteriologik bo`tkaga geografiya maydonchasining soya



tushmaydigan joyiga taxminan 2 sm balandlikka o`rnatiladi.


3) Osadkomer- atmosfera yog`inlar miqdorini o`lchash uchun.

4) Qor o`lchash rekasi- qor qoplami qalinligini aniqlash uchun;

Tog` jinslari va suvning ishini o`rganish uchun kerakli asbob uskunalari: sun`iy tepalik, sun`iy hovuz, daryo modeli, tog` jinslari va atrofdagi tuproq namunalari.

Oqar suvlarning ishini ko`rsatish uchun geografiya maydonchasiga vodoprovod o`tkaziladi. Qirg`oqlarning yuvilishi, sharsharalarning, ostonalarning, hosil bo`lish prosesini ko`rsatish uchun sun`iy suv olish yo`liga to`siqlar qo`yiladi: qo`lda yasalgan kichginagina daryo modeliga to`g`on ham qurish mumkin. V-sinf o`quvchilari boshqa sinf bolalari bilan birgalikda doimo geografiya maydonchasini obodoblashtirish, unda tarkib topgan asbob uskunalarni avaylab asrash va unda tartib saqlashga oid ishlarni olib boradilar.

3-rasm



Toshkentda yil davomida Quyoshning gorizantdan balandligi

YU-rasm. Gnomon bilan ishlash. Erning sutkalik va yillik harakati natijasi da
1quyosh harakatini ko'rish mumkin;
Quyoshning tush vaxdatsagi balandligi yil davomi da o'zgaradi;
havo temperaturasining sutka davomida uzgari- shi gorizontga nisbatan Quyosh
balandligining o'zgarishi bilan boq`liq;
gorizontga nisbatan Quyosh balandliining o'zga rishiga qarab havo
temperaturasi yil davomida o'zga rib boradi.



Quyosh balandligining uzgarishini kuzatish uchun maxsus asbob gnomondan
foydalaniladi. Quyoshning tush vaqtidagi balandligini aniqlash uchun utsuvchilar
sterjen (yoroch)dan tushayotgan soyaning uzunligini ul- chay dnl ar (sterjen
balandligi —100 mm). Masalan, 22 aprel kuni Toshkentda tush vaqtida sterjendan
va tushayotgan soyaning uzunligi 52 mm ga teng edi. Gnomon sterjenniNg
balandligi undan tushayotgan soyann 1 sm=1 sm masshtabli qogozga tushiriladi

1.2. Tabiiy geografiya tajriba metodi materiallariga asoslangan ta'limning ahamiyati.

Tajriba metodi deb o'quvchilar tabiatda bevosita kuzata olmaydigan voqea va hodisalarni laboratoriya mashg'ulotida yaratishga aytiladi. Ayrim voqea va hodisalar juda tez sodir bo'ladi (zil-zila, vulqon va x.k) ayrimlari juda uzoq vaqt davom etadi (tog' jinslarini xosil bo'lishi, tog'larni ko'tarilishi, daryo vodiylarni shakllanishi va x. k.). bunday jarayonlarni bevosita kuzatib bo'lmaydi. Tabiiy geografiyani qator mavzularini o'rganishda tajribalar o'tkazish muxim o'rin tutadi. Tajriba yordamida murakkab tabiiy geografik jarayonlar sodir bo'lishini o'quvchilarga sinf sharoitida ko'rsatish mumkin.

Tajriba hodisani tadqiqotchi vujudga keltirgan sun'iy sharoitda o'rganish maqsadida o'tkazildi. Shunday geografik hodisalar borki o'quvchi ularni tabiatda bevosita kuzatishga ega emas. Ayrim hodisalar (masalan: tog' va vodiyni hosil bo'lishi) shuncha sekin ro'y beradiki, hatto uni kuzatish uchun kishi hayoti yetmay ketadi. Bu xil geografik hodisalarni tajribasiz o'rganib bo'lmaydi. Tajriba metodi o'rganilayotgan hodisani kuzatishga nisbatan ancha batafsil va chuqur tahlil qilishga, uning mohiyatini tushunishga, sabablarini boshqa hodisalar bilan bog'liq tomonlarine aniqlashga imkon beradi. Tajriba o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularda bilim olishda tadqiqotchilik nuqtai nazaridan yondashishga yordam beradi. Tajriba o'quvchilarning faoliyatini aktivlashtirish bilan birga ularning dialektik-materialistik, atiestik dunyoqarash ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir. Tajribalar o'quvchilarga ob'ektining hossalari va holatini o'zgarishi, rivojlanishini ko'rish va idrok etishga imkon beradi. Bu jihatda hech qanday metod tajribaning o'rnini bosa olmaydi.

Geografiya o'qitish metodikasida quyidagi tajribalar o'tkaziladi:

- 1.Litosfera mavzusida o'tkaziladigan tajribalar
- 2.Gedrosfera mavzusida o'tkaziladigan tajribalar
- 3.Atmosfera mavzusida o'tkaziladigan tajribalar.

Litosfera mavzusini o'rganishda tajriba metodidan foydalanish. Mazkur mavzuni o'tishda cho'kindi jinslarni xosil bo'lishini, burmalarni vujudga kelishini tajribada ko'rsatish mumkin.

Cho'kindi jinslarni xosil bo'lishini tajribada quyidagicha ko'rsatish mumkin. buning uchun 1l shisha bankaga yarim litr suv quyiladi. Unga qum vag il solinadi va so'ngra banka silkitiladi. Silkish jarayonida qum vag il suv bilan aralashadi va loyqa hosil bo'ladi. Shundan so'ng banka stol ustiga qo'yilib tindiriladi. Tindirish jarayonida o'quvchilar kuzatib turishlari lozim. Tindirish jarayonida banka tubiga avval og'irroq jins yani qum tusha boshlaydi va qum qatlami xosil bo'ladi so'ngra engilroq gil qatlamicho'ka boshlaydi hamda qum qatlamini tepasida gil(loyqa) qatlami xosil bo'ladi, uni tepasida suv qatlami joylashadi.

Tajribadan so'ng o'qituvchi sinfga quyidagi savollar bilan murojat qiladi:

- qaysi tog' jinslari oldinroq cho'kdi;
- qaysi tog' jinslari qiyinroq cho'kdi;
- nima uchun idish tubida hosil bo'lgan jinsni cho'kindi tog' jinsi deb ataladi;
- cho'kindi tog' jinslarini qanday belgilarga qarab aniqlash mumkin;

Tog tizmalarni yoki burmalarni xosil bo'lishini ko'rsatish uchun 20-30 dona qog'oz varag'i yoki o'quvchilarni daftarlaridan foydalanish mumkin. buning uchun qog'ozlar qatlami yoki sinf daftari stol ustiga gorizantal xolatda qo'yiladi. So'ngra ikki tomonidan siqiladi, natijada tog' tizmasi va tizmalar orasidagi vodiy (botiq) xosil bo'ladi. Vertikal qatlami esa burmalarni vujudga kelishini ifodalaydi. Bundan tashqari glaben va gorstlarni xosil bo'lishini plastelindan foydalanib o'quvchilarga ko'rsatilsa ham bo'ladi.

Gedrosfera mavzusini o'kitish jarayonida quyidagi tajribalarni qilish mumkin:

- suvni isiganda kengayib soviganda tarayishi;
- tog' jinslarining o'idan suvni turlicha o'tkazishni;
- suvning tuzilish birligiga qarab tog' jinslarini yuvilishi va jarlarni xosil bo'lishi;
- sharsharani vujudga kelishini.

Suvni isiganda kengayishi, soviganda torayishini quyidagi tajribada ko'rish mumkin (O.Mo'minov, 1986):

- kolbaga suv quyiladiva suvga bir necha tomchi siyoxtomizib rangli qilinadi;
- suvning kolbadagi satxi (kolbaning tor og'zi)ga ip boylab belgilanadi va kolbaning og'zio'rtasidan shisha naygao'xshagan qopqoq bilan yaxshilab berkitiladi;

- kolbadagi suvni spirt lampasi yordamida qizdiriladi. Shunda suv ip bilan belgilab qo'yilgan satxdan yuqori ko'tarilib, shisha naycha ichiga kiradi. Turli tog' jinslarini suvni turlicha o'tkazishini quyidagi tajribada kursatish mumkin:

- ikkta shisha varonka shtativga o'rnatiladi va ularning pastki teshigi paxta bilan berkitiladi;

- birinchi k5olbaga yarim stakan gil (tuproq), ikkinchisiga yarim stakan qum solinadi;

- voronkalardagi gil va qum ustiga yarim stakan suv quyiladi;

- tajribada suv qumdan tez o'tishi va gildan juda sekin o'tishi aniqlanadi.

- suv quyilishi va uni qum yoki tuproqdan o'tishi vaqtini belgilab er osti suvlari tozaligini ham aniqlash mumkin.

Bundan tashqari turli tog' jinslarini suvda eruvchanligini ham o'rganish mumkin. buning uchun slindrgva suv quyiladi va unga o'rganmilayotgan tog' jinslarining bir bo'lagi solinadi va uning to'la erish vaqti kuzatiladi. Erigan tog' jinslariga turli xil tuzlar, tuproqlar va qumtoshlar kiradi. Mazkur tajribalar asosida o'quvchilar turli tog' jinslarini turlicha suv o'tkazishni o'rganishda va er osti suvlarini xarakati xaqida bilimlarga ega bo'lishadi. Atmosfera mavzusini o'rganishda bajariladigan tajribalar mazkur mavzuni o'rganishda tajriba metodi o'quvchilarni tegishli bilimlarini egallashda va kunikmalarni xosil qilishda katta axamiyatga ega.


Atmosfera mavzusini o'rganishda quyidagi tajribalarni o'tkazish mumkin:

- quruqlik va suvni turlicha isishini;


- bulut va yomg'irlarni xosil bo'lishini;

- qirov va qorni hosil bo'lishini va x.k.


Shamolning yo`nalishi
va kuchini ifodalovchi
belgilar



Bulutni ifodalovchi
belgilar



Yog`inlarni
ifodalovchi belgilar.



Quruqlik va suvning turlicha isishini ko'rsatadigan tajriba o'quvchilarda quruqlik va musson iqlimi xaqida tushunchalarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Mazkur tajribani «Ob-havo va iqlim» mavzusini o'tishda ko'rsatish mumkin. tajriba quyidagi tartibda olib boriladi:

- ikta bir xil quticha shaklidagi idish olinadi. Mazkur idishlarning o'lchamlari quyidagicha bo'lishi lozim; uzunligi 15 sm, kengligi- 7,5 sm, balandligi-5 sm, ikta bir xil termometr, lampa (qizdirish uchun):

-idishlarni biriga suv ikinchisiga tuproq solinadi. bir paytni o'zida ikkalasini ham xarorati o'lchanadi;

-ikkala idishdagi suv va tuproq lampa yordamida qizdiriladi va 6-7 minutdan so'ng xaroratlar yana qaytadan o'lchanadi;

Termometrda olingan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan sinf taxtasiga yoziladi, o'quvchilar esa daftarlariga yozib olishadi. Ma'lumotlar quyidagi jadval shaklida ifoda qilinadi.

Yuza	Xarorat darajasi			Farqi
	Dastlabki	Qizdirilgandan so'ng	Sovutilgandan so'ng	
Suv	14	18	16	2
Tuproq	14	39	14	25

Suv va tuproq xaroratidagi farqning kattaligi tuproq, yani Er yuzasiga nisbatan tezroq isib tezroq sovishiga o'quvchilarda ishonch xosil qiladi. Bu esa quruqlik va okeanda iqlimni turlichaligini asoslab beradi. Bulut va yomg'irni xosil bo'lishini tajribada ko'rsatish uchun baladligi 25-30 sm keladigan shisha idish (tslindr) olinadi. Idishning devori terlamasligi uchun u bir oz qizdiriladi. Idish ichiga suv solinadi va spirtli lampada qizdiriladi. Idishning qopqog'ini tepasiga muz solib qo'yilsa, muz ostida bulut (bug') xosil bo'ladi, sungra undan yomg'ir (suv tomchilari) ajralib chiqa boshlaydi. Demak o'quvchilar bulutlar va yog'inlar

xosil bo'lishini sinf sharoitida kuzatishi va Ushbu jarayonni to'la kuzatishi mumkin. Geografiya darslarida o'tkaziladigan tajribalarga qo'yiladigan talablar. O'tkaziladigan tajriba ko'zlangan maqsadga erishish va unda beriladigan bilimlarni o'quvchilar yaxshi o'zlashtirishlari uchun tajriba quyildagi talablarga javob berishi lozim (Gerasimova, Korinskaya)

1. O'qituvchi dars jarayonini tugatayotganida qanday masalalarni tajriba yordamida tushuntirishni oldindan belgilashi zarur. Tajriba o'rganilayotgan mavzu bilan bevosita bog'langan bo'lmog'i lozim.

2. Tajribani boshlashdan avval o'quvchilarni tajriba mavzusi, uning ahamiyati va tajriba o'tkazishni asosiy bosqichlari bilan tanishtirish lozim. Masalan, o'qituvchi shag'al va gilni suv o'tkazuvchanligini o'rganish bo'yicha tajriba o'tkazishdan oldin o'quvchilar mazkur tajriba orqali nimalarni bilib olishlarini aytib berish lozim. Mazkur bilimlar buloqlarni artiz va oddiy quduqlarni o'rganishda zarur bo'lishini takidlashi lozim.

3. O'quvchilarni faolligini oshirish va o'tkazilayotgan tajribani mohiyatini tushunayotganini tekshirish maqsadida sinfga savol bilan murojat qilish va har bir o'quvchini kuzatib turish lozim.

4. Tajriba davomida o'qituvchi o'quvchilarda kuzatilayotgan hodisa haqida mustaqil fikrlash qobiliyatini uyg'otish zarur va tajribani oxirida ular mustaqil xulosalar qilishlari lozim. Masalan quruqlik va suvlikni isishi va sovushini tajribada o'rganish davomida o'quvchilar quruqlik okeanlarga nisbatan tez isib va tez sovishi haqida va buni oqibatlarida turli iqlim tuproqlarini shakllanishi haqida bilimlarga ega bo'lishadi.

5. Tajriba davomida rasmlar, jadvallar, chizmalar va ko'rgazma qurollarni xam ko'rsatib berishi lozim.

6. Tajriba o'tkazish uzoq davom etmasligi lozim. O'ta murakkab tajribalar bir soatdan ortiq davom etmasligi lozim.

7. Tajriba o'tkazilishga o'quvchilar puxta tayyorlanishi lozim.

8. Tajriba o'tkazilayotganda priborlarni shunday joylashtirish kerakki ularni o'quvchilarni xammasi ko'rib tursin.

Maktab geografiya maydonchasida quyidagi tajribalarni o'tkazish mumkin: suvni emirilish ishi; er yuzasini yonbag'rini qiyaligi va nima bilan qoplanganini bog'liq xolda turlicha isishi. Suv va quruqlik yuzasini havoni isishiga ta'sirini o'rganish uchun quruqlik va suv xavzasi yuzasida xarorat turli vaqtda o'rganiladi va taxlil qilinadi. Reliefni xaroratga ta'sirini o'rganish uchun havo xarorati tekislik va tog' yonbag'rida o'rganiladi. Olingan ma'lumotlarni taxlil qilish asosida tekislik va yonbag'rini turlicha isishi haqida o'quvchilar bilimlarga ega bo'lishadi. Yani o'quvchilar tajriba asosida yonbag'rlarni shimoliy va janubiy qismlarida o'simliklar xollarini turlichaligini tushunib olishadi.

Gruntlarni turi, mexanik tarkibi, rangi, o'simlik bilan qoplanganlik darajasi, namligini er yuzasini isishiga ta'sirini saqlash uchun quyidagi tajriba o'tkaziladi:

- chuqurligi 0,5 m, kengligi 0,5 m, uzunligi 1 m bo'lgan bir necha chuqur qaziladi;

- mazkur chuqurlar turli xil tog' jinslari va tuproqlar bilan to'ldiriladi;

- ma'lum vaqt o'tgandan so'ng ularni xarorati o'rganiladi;

- turli vaqtlarda turli tog' jinslari va tuproqlar xaroratining ----lari taxlil qilinadi va tog' jinslarning turlari mexanik tarkibi hamda namlik darajasi xaroratga qanday ta'sir etishi aniqlanadi. Geografiya maydonida yoki ochiq joyda o'quvchilar tomonidan tuproqlarni va tog' jinslarini xaroratini mustaqil o'rganilishi geografiya ta'limini xayot bilan bog'liqligini mustaxkamlaydi.

1.3. Tabiiy geografiya fanlarida amaliy ish metodi materiallariga asoslangan ta'limning ahamiyati.

Amaliy ish metodi. Kuzatish va tajriba metodi bilan chambarchas bog'langan. Kuzatishlar olib borish, tajribalar o'tkazish, ekskursiya va poxodlardagi tabiiy materiallarni yig'ish vaqtida o'quvchilar turli xil mehnat operatsiyalarini bajarishlariga tug'ri keladi. Bundan tashqari, tabiatshunoslik darslarining ko'pchiligida geografik kartalar, globus, tabiiy tarqatma materiallar bilan ish ko'rish lozim bo'ladi. Gerbariy va kolleksiyalar tayyorlashga doir ishlar katta o'rin egallaydi. Tabiatshunoslik programmasi va darsligida anchagina shunday ishlar bor. Ular darslarda va uy vazifalarida albatta bajarilishi kerak. Tabiatshunoslikni o'qitishning bu metodi faqat kuzatishlar, tajribalar, ekskursiyalar, malaka hosil qilish mashqlari bilan bog'liq holda qo'llanilmaydi. O'quvchilarda zarur ko'nikma va malakalarni hosil qilish uchun ham ko'pgina amaliy ishlar o'tkaziladi. Masalan, maktab uchastkasidagi amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar o'simliklar va hayvonlarni parvarish qilishga, qishloq xo'jalik

O'simliklarining zararkunandalariga qarshi kurashishga oid ko'nikma va malakalarni egallaydilar, geografiya maydonchasidagi meteorologiya asbob-uskunalar bilan ishlash bolalarda aniq o'lchash, ob-havoni oldindan aytish, joyda turib mo'ljal olish kabi ko'nikma va malakalar hosil qilishga yordam beradi. Darsda o'qituvchi rahbarligida egallangan bu ko'nikma va malakalarni o'quvchilar keyinchalik darsdan tashqari vaqtda bajariladigan maktab yer uchastkasidagi ishlarda, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida va tabiatni qo'rishlash yuzasidan olib boriladigan ijtimoiy foydali ishd, qo'llashlari mumkin. Bundan o'quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalar "haqiqiy ishlarda" qo'llanilishini anglashi ularda mehnat faoliyatiga istak paydo qiladi va o'rganilayotgan fanga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Ijtimoiy foydali mehnat prosessida bolalarning sinchkov ko'zlari jonli va jonsiz tabiat hayotidagi eng muhim hodisalarni payqab oladi, Bu esa ularning tabiatshunoslik darslarida olgan nazariy bilimlarini boyitadi.

A m a l i y i s h l a r o'qitish metodi sifatida ayniqsa shu bilan qimmatliki,

ularni bajarish vaqtida o`quvchilarning mustaqilligi, aktivligi va tashabbuskorligi kuzatishlar va tajribalar vaqtidagiga qaraganda yanada ko`prok, darajada namoyon bo`ladi.

O`quvchilarning amaliy ishlarni muntazam ravishda bajarishi – o`qitishda nazariya bilan praktikani bog`lashning, ya`ni fan asoslarini o`rganishni bolalarning mehnat faoliyati bilan qo`shishning eng muhim vositasi bo`lib politexnika ta`limining muhim usullaridan biri hisoblanadi.

Tabiatshunoslik darslarida bolalar xalq, xo`jaligida tabiiy resurslardan foydalanish to`g`risidagi, ularni quriqlash haqidagi, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari tug`risidagi eng oddiy bilimlarga ega bo`ladilar.

Konkret vazifalar va bajariladigan ishning mazmuniga qarab amaliy ishlar sinfda, maktabning o`quv-tajriba o`chastkasida, geografiya maydonchasida, joylarda o`tkazilishi mumkin.

Sinfda o`tkaziladigan amaliy ishlar ko`pgina tabiatshunoslik darslarida qullaniladi. Bular birinchi navbatda tabiiy tarqatma materiallar bilan bajariladigan ishlardir.

Tarqatma material tabiiy ob`ektlar naboridan iborat bo`lib, ular bilan bevosita tanishish uchun o`quvchilarga tarqatib beriladi. Quyidagilar tarqatma material naboriga kiradi: 1) jonli tabiat ob`ektlari: jonli va quritilgan o`simliklar hamda ularning organlari; jonli mayda hayvonlar (masalan, hasharotlar) va ularning kolleksiyalari hamda nam (quritilmagan) preparatlar; 2) jonsiz tabiat ob`ektlari: tuproq, foydali qazilmalar, minerallar, tog` jinslari namunalar; 3) foydali qazilmalar: o`g`it, metall, neft, toshko`mir va hokazolardan tayyorlangan buyum namunalari; 4) o`simliklar va hayvonlar, manzaralar, kosmik kemalar uchishining ayrim epizodlari, sanoat va qishloq xo`jalik korxonalarining ishlab chiqarish protsesslari tasvirlangan rasmlar, fotosuratlar nabori.

O`quvchilar ob`ektlarning xossalarini o`rganar ekanlar, ularga ta`sir etadilar: tog` jinslari namunalarini va ulardan tayyorlangan buyumlarning mustaxkamligi va qattiqligini sinab ko`radilar, ohaktoshlarni aniqlash uchun kislota eritmasidan foydalanadilar, tuprokning suvda eruvchanligini tekshiradilar,

maydalaydilar, qizitadilar va uni suvda aralashtiradilar va hokazo. Bu ishlarni bajarish vaqtida tarqatma material naborlari yaroqsiz holatga keladi va doimo yangilari bilan almashtirib turiladi.

Tematik rasmlar, fotografiyalar, otkritkalarini bolalar faqat ko`zdan kechirmaydilar, balki ularni klassifikatsiyalaydilar ham (masalan, xilma-xil tashqi muhit sharoitida yashovchi o`simlik va hayvonlar, kosmik kemalar parvozining xronologik tartibi va hokazo.

O`quvchilar ekskursiya, sayr qilish paytida, maktab uchastkasida yoki qishloq xo`jaligida amaliy ishlarni bajarish vaqtida o`qituvchi rahbarligida doimo tabiiy tarqatma materiallarni yig`ib boradilar. Tabiiy materiallarning yaxshi saqlanishi va darslarda ulardan samarali foydalanish uchun ularni paketcha, papkacha, ko`pincha, bankaga va xokazolarga bo`lib qo`yiladi.

Geografiya maydonchasidagi amaliy ishlar tabiatshunoslik darslarida va sinfdan tashqari vaqtlarda muntazam o`tkazib turiladi. Astronomik va meteorologik kuzatishlar munosabati bilan bolalar asboblardan foydalanishni, ularning

ko`rsatkichlarini muntazam yozib borishni o`rganadilar. IV sinf o`quvchilari boshqa sinf bolalari bilan birgalikda doimo geografiya maydonchasini obodonlashtirish, unda tartib saqlashga oid ishlarni olib boradilar, darslarga va to`g`arak mashg`ulotlarida ko`rsatish uchun zarur bo`lgan ob`ektlar: yer yuzasi - formasining modellari, hovuzlar, to`g`onlar, sug`orish kanallari va hokazolarni ko`radilar.

Maktab o`quv-tajriba o`chastkasidagi amaliy ishlar o`simliklarni yetishtirish bilan bog`langan. Bu ishlar qishloq xo`jalik mehati programmasi va darslikda qarab chiqiladi, shuning uchun mazkur qo`llanmada ular-ustida to`xtalib o`tishning hojati yo`q.

II.Bob. Maktab tabiiy geografiya darslarida geografiya maydonchasida kuzatish, tajriba va amaliy ish darslarida foydalanish metodlari.

2.1. Maktab geografiya maydonchasidan kuzatish darslarida foydalanish metodlari.

Geografiya maydonchasi ochiq joyda amaliy ishlar olib borishga mo'ljallab jihozlanagan joydir. Geografiya maydonchasini "Tabiat laboratoriyasi" deyish mumkin, chunki "Tabiat laboratoriyasi" da o'tkazilgan mashg'ulotlar o'quvchilar bilimni puxta bo'lishini ta'minlaydi, turli asoslar bilan ishlashga doir ko'nikmalarni hosil bo'lishiga yordam beradi. O'quvchilar geografiya maydonchasida tabiat hodisalarini kuzatishga, ijtimoiy foydali mehnat qilishga o'rganadilar.

Geografiya maydonchasi iloji boricha ochiqroq joyda tashkil etilishi lozim. Bu ko'z bilan chamalab plan olish, quyoshning chiqishi va botishini, uning gorizontdan balandligini yil o'zgarishini kuzatishga aniqlashga imkon beradi. Geografiya maydonchasining maktab tajriba uchastkasi yonida bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki bu fenologik hodisalarni tushuntirish, qishloq xo'jalik ekinlarini rivojlanishini iqlimga bog'liq ekanliklarini o'z ko'zlari bilan ko'rib, bilib olishga imkon beradi.


Maktab yonidagi joyga qarab geografiya maydonchasining kattaligi 25X20 m, 20X15 m, 20X10 m, 10X10 m bo'lishi mumkin.

Geografiya maydonchasida quyidagi asboblardan foydalanish mumkin. Bino va daraxtlarning balandligini aniqlash uchun rostomer, maydonlarning kattaligini aniqlash uchun kvadrat metr, hajmiga oid tasavvur hosil qilish uchun kub metr, qadam uzunligini aniqlash uchun o'lchov yo'lkasi.

Joyda orientirlash uchun: soyaga qarab shimoliy yo'nalishni aniqlaydigan-gnomon, qutb yulduzi ko'rsatkichi, burchak o'lchagich, rumb-azimutlar halqasi, quyosh soatlari, o'z joyining meridian va parallelini ko'rsatuvchi chiziqlar kerak.

Astronomik kuzatish olib borish uchun: Shimoliy qutb ko'rsatkichi, transporterdan yasalgan eklimer, oddiy gnomon asboblari kerak.

Metereologik kuzatish olib boriladigan: meteriologikbudka, psixrometr, flyuger, yog`in o`lchagich, qor qalinligini o`lchaydigan reyka, har xil termometrlar (maksimal va minimal, tuproq termometrlari) bo`lishi lozim. Shuningdek avtomatik meteorologiya stansiyasi ham bo`lishi mumkin. Maktab geografiya maydonchasining plani:



- 1.Devor o`lchagich. 2. Yo`lka. 3. Tuproq nanunalari. 4. Tog` jinslari namunalar
- 5.Kvadrat metr. 6. Kub metr. 7. Peper.8. Flyuger. 9. Nefoskop. 10. Meteorologik butka.11. Yog`in o`lchagich. 12. Qor o`lchagich reyka. 13. Astrolyabiya.
14. Eklimer. 15. Qutb yulduzi ko`rsatkichi. 16. Gorizontal quyosh soati
- 17.Ekvatorial quyosh soati 18. Rumbik azimuth halqasi. 19. Gnomon. 20. Mahalliy meridian va parallel. 21. Qumli yashik. 22. O`quvchilar uchun stol va stellar.
23. Sinf doskasi. 24. O`qituvchi stoli

Yuqoridagilardan tashqari geografiya maydonchasida: rel`ef shakllari va sun`iy hovuzcha, sun`iy tepa va soylik, qumli yashiklar, tog` jinslari kolleksiyalari

bo'lishi maqsadga muvofiq. Geografiya maydonchasida quyoshning gorizontdan balandligi, kun va tunning uzunligi, ob havo holatini kuzatish, topografiyadan amaliy mashg'ulotlar (orientirlash, oraliqni o'lchash, maktab yoni yoki o'chastkasini planini olish, rel'efni gorizontallar yordamida tasvirlash, profil chizish kabi), "Gidrogeografiya" va "Atmosfera" temalarini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan ayrim amaliy ishlarni, shuningdek fenologik kuzatishlarni olib borish mumkin. Shahardagi ko'pchilik maktablarda talabga javob beradigan geografiya maydonchasini tashkil etish uchun sharoit yetarli deb bo'lmaydi. Shuning uchun maktablarda ixcham geografiya maydonlarini tashkil etish mumkin. Bunda programmada ko'zda tutulgan zarur asboblari, shuningdek muhim jihozlari bo'lishi shart.


Geografiya maydonchasini tashkil etish imkoniyati bo'lmagan maktablarda meteorologik burchak tashkil etish kerak. Kuzatish - tabiatni o'rganishning juda yaxshi usuli, chunki u tabiat haqidagi faktlarni to'plashga, tabiatdagi narsa va hodisalarni to'g'risida dastlabki tasavvurlarni xosil qilishga imkon beradi. Kuzatish vaqtida o'quvchilar tabiatdagi narsa va hodisalarni voqeylikda qanday bo'lsa shundayligicha, ularga biror bir o'zgarishlar kiritmasdan idrok qiladilar. Tabiatshunoslikka oid kuzatishlar qisqa va uzoq vaqt davom etadigan bo'ladi. Ularning ba'zilar bir dars mobaynida o'tkaziladi, masalan, suvni haydash yo'li bilan erigan moddalardan tozalash, loyli va qumli tuproqning suv o'tkazuvchanligi va nam saqlashligi, akvariumdagi baliqlarning harakat xususiyatlari va hokazolarni ustida olib boriladigan kuzatishlar. Boshqa paytlarda bolalarning kuzatishlari uzoq davom etish xarakterida bo'ladi va tabiatda, jonli tabiat burchagida, geografiya maydonchasida, maktab o'quv-tajriba o'chastkasida, qishloq xo'jaligida, uy sharoitlarida olib boriladi. Masalan, bolalar butun o'quv yili davomida o'z o'lkalarining ob-havosi, quyoshning yer yuzasidan balandligi, mahalliy o'simliklar va hayvonlarda ro'y beradigan mavsumiy o'zgarishlarni ustida kuzatish ishlari olib boradilar.

O'quvchilarning maktab geografiya maydonchasidagi kuzatishlari. Tabiatshunoslik kursi mazmuniga kuzatuvchilardan ancha uzoq masofada

boʻlgan tabiat obʻektlari va hodisalari haqidagi bir qator tushunchalar kiradi. Tabiatdagi baʼzi obʻekt va hodisalarni oʻquvchilar bevosita kuzata olmaydilar, ular toʻgʻrisidagi tushunchalar esa oʻzlashtirib olish uchun ancha qiyin. Ana shunday tushunchalarni tarkib toptirishda maktab geografiya maydonchasi katta yordam koʻrsatishi mumkin. Geografiya maydonchasi - zarur asboblardan bilan jihozlangan oʻquvchilarning tabiatshunoslik va geografiyaga doir kuzatish ishlari olib borishi va mashgʻutlar oʻtkazishi uchun ajratilgan joy.

Maktab geografiya maydonchasini ochiq yerdagi laboratoriya deb atash mumkin. Bu yerda III - IV sinf oʻquvchilari ish olib boradilar. Oʻquvchilarning atrofdagi tabiatni bevosita kuzatishlaridan maqsad jonsiz tabiat hodisalari oʻrtasida aloqa va bogʻliqliklarni aniqlashdan iborat.

5-rasm



MAKTAB GEDGRAFIK MAYDONCHASINING tashhi

Geografiya maydonchasi uchun 25x25 m li maydon tavsiya etiladi. Bunday maydonchada tegishli jihozlar va asboblarni joylashtiriladi hamda uquvchilarning mustaqil ishlarni bajarishlari uchun hamma sharoitlar yaratiladi. Biroq, hamma maktablar ham geografiya maydonchasiga shunday katta teritoriyani ajratish imkoniyatiga ega emaslar. SHu sababli geografiya maydonchasini kichikroq - 10 x 10 m o'lchamda jihozlash mumkin.

Geografiya maydonchasi katta daraxt va binolardan soya tushmasligi uchun maktab hovlisining ochiq yeriga joylashtiriladi. SHunday qilinganda barcha yo'nalishdagi shamollar uchun to'siq bo'lmaydi va osmon jismlarini kuzatish imkoniyati bo'ladi. Geografiya maydonchasining o'quv-tajriba uchastkasi bilan yonma-yon bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Geografiya maydonchasi uchun ajratilgan joy tekislanadi, devor bilan to'sib olinadi va asbob-uskunalar o'rnatiladi. Tabiatshunoslik darslari uchun quyidagi asbob uskunalar kerak bo'ladi.

1. Mo'ljallan olish ko'nikmalarini hosil qilishga mo'ljallangan asboblarni: mahalliy meridian va parallellar modeli 2 m balandlikdagi to'rtta yog'ochga biri meridian yo'nalishi bo'yicha, ikkinchisi parallellar yo'nalishi bo'yicha ikkita sim tortiladi. Meridianlar bo'yicha tortilgan sim gorizontning Shimol va Janub parallellari bo'yicha tortilgan sim Sharq va G'arb tomonlarini ko'rsatadi. Shunday qilib qurilma ayni vaqtda gorizont tomonlarining ko'rsatkichi hamdir.
2. Astronomik asbob uskunalar: a) Shimoliy qutb ko'rsatkichi. Yerga qazib o'rnatilgan va balandligi 1 m 20 sm bo'lgan yog'och qoziqning uchiga uzunligi 1 m 50 sm bo'lgan yog'och taxtacha mahkamlanadi. Yog'ochning uchi Shimol qutbiga qaratiladi.

b) transportirdan yasalgan eklimetr - Quyosh, Oy, yulduzlar va boshqa osmon jismlari (yoritrichlar)ning gorizontdan balandligini, shuningdek joyning kengligini ulchashga yordam beratsi. SHimoliy yarimsharlarda joyning kengligi qutb yulduzining gorizontdan balandligiga qarab aniqlanadi. (4- rayem). O`quvchilarning o`zlari o`qituvchi raxbarligida eklimetr tayyorlashlari mumkin;

v) oddiy yog`och - gnomon. Maydonchaning tekislangan joyiga 1 m 30 sm uzunlikdagi yog`och ko`miladi. Uning 30 sm yerga ko`miladi, 1 m esa yer yuzasida qoladi. Reta (tosh bog`langan ip) yordamida yog`och vertikal qilib o`rnatiladi. Tush vaqtida yog`ochdan tushayotgan soya shimol tomonni kursatadi. Gnomon yordamida xar oyda Quyoshning chiqish va botish joylari kuzatiladi, shuningdek quyoshning gorizontdan balandligi aniqlanadi

3. Meteorologik asbob-uskunalar:

a) meteorologik budka. Unga quyidagi asboblarni joylashtiriladi: havoning temperaturasi o`lchash uchun termometr, xavo bosimini o`lchash uchun barometr, havoning namligini o`lchash uchun gigrometr. Meteorologik bo`dka geografiya maydonchasining soya tushmaydigan taxminan 2 m balandlikda o`rnatiladi;

b) flyuger - shamol yo`nalgishi va tezligini aniqlash uchun. Flyuger simyog`ochga taxminan 10 m balandlikda o`rnatiladi. Agar baland bino yoki daraxtlar flyugerning normal ishlashi uchun xalaqit bersa, u maktab tomiga o`rnatiladi;

v) osadkomer - atmosfera yog`inlari miqdorini o`lchash uchun;

g) qor o`lchash reykasi – qor qoplami qalinligini aniqlash uchun.

Tog` jinslari va suvning ishini o`rganish uchun kerakli asbob-uskunalar: sun`iy tepalik, sun`iy hovuz, daryo modeli, tog` jinslari va atrofdagi tuproq namunalari.

Oqar suvlarning ishini kursatish uchun geografiya maydonchasiga vodoprovod o`tkaziladi. Qirg`oqlarning yuvilishga, sharsharalarning, ostonalarning hosil bo`lish

protsessining ko`rsatish uchun sun`iy suv olish yo`liga to`siqlar qo`yiladi. Qo`lda

yasalgan kichkinagina daryo modeliga to`gon xam qurish mumkin.

- 1) Yerning so`tkalik va yillik harakati natijasida Quyosh harakatini ko`rish mumkin;
- 2) Quyoshning tush vaqtidagi balandligi yil davomida o`zgaradi;
- 3) xavo temperaturasining sutka davomida o`zgarishi gorizontga nisbatan Quyosh balandligining o`zgarishi bilan bog`liq;
- 4) gorizontga nisbatan Quyosh balandligining o`zgarishiga qarab xavo temperaturasi yil davomida o`zgarib boradi.

Quyosh balandligining uzgarishini kuzatish uchun maxsus asbob - gnomondan foydalaniladi. Quyoshning tush vaqtidagi balandligini anishlash uchun o`quvchilar sterjen (yogoch)dan tushayotgan soyaning uzunligini o`lchaydilar (sterjen balandligi - 100 mm). Masalan, 22 aprel kuni Toshkentda tush vaqtida sterjendan tushayotgan soyaning uzunligi 52 mm ga teng edi.

Gnomon sterjenning balandligi va undan tushayotgan soyaning 1 sm= 1 sm masshtabli qog`ozga tushiriladi.



Chizmadagi AV sterjenning uzunligi ham 100 mm ga teng, soyaning uzunligi - 52 mm. A nuqtasini S nuqtasi bilan birlashtirsak, AS chizig`i hosil bo`ladi. Bu chiziq Quyosh nurlarining yo`nalishini ko`rsatadi, hosil bo`lgan VSA burchagi

gorizontga nisbatan Quyosh balandligini belgilaydi.

Rasmda VSA

burchagi 61° ga teng. Demak, gorizontga nisbatan Quyoshning tush vaqtidagi balandligi 22 aprel kuni Toshkentda 61° ga teng bo'ladi.

Tashkent shaxrida yil davomida Quyoshning gorizontdan balandligini o'lchash natijalarining to'g'riligini taqqoslash uchun quyidagi ma'lumotlarni keltiramiz:

Oy, kun	Quyoshning tush vaqtidagi gorizontdan balandligi, grad.	Oy, kun	Quyoshning tush vaqtidagi gorizontdan balandligi, grad.
22.I	29	22.VII	69
22.II	39	22.VIII	61
21.III	49	23.IX	49
22.IV	61	22.X	39
22.V	69	22.XI	29
22.VI	72	22.XII	26


Yulduzlar ustidagi kuzatishlar juda qiziqarli. Qutb yulduzi ko'rsatkichi yordamida o'quvchilar Qutb yulduzining uzgarmasligini, u doimo bir joyda turinishini bilib oladilar. O'quvchilar biror bir boshqa yulduzni ham kuzatishlari mumkin. Bunda ular bu yulduzning geografiya maydonchasidagi biror buyumga nisbatan tutgan xolatini qayd qiladilar.

chiqaradilar: yulduzlar osmonda sharqdan g'arbga qarab harakat qiladi.


Sayyoralarni va Oy fazalarining o'zgarishini kuzatish uchun o'qituvchi qachon, qaysi soatlarda, qanday sayyora osmonning qayerida ko'rinishini bilishi kerak. O'qituvchi bu ma'lumotlarni, shuningdek Oyning chiqishi va Geografiya maydonchasida astronomik kuzatishlar olib boriladi: Quyoshning

chiqishi va botishi gorizonga nisbatan Quyosh balandligining uzgarshi, yulduzlar, sayyoralar, Oy fazalarining o`zgarishi kuzatiladi.

”Yer - Quyosh sistemasidagi sayyora” mavzusi IV sinf o`quvchilari uchun eng qiyin mavzulardan biridir. Gorizontga nisbatan Quyosh balandligining o`zgarishini, tush vaqtidagi soyaning uzunligini, Quyosh chiqish va botish nuqtalarining siljishini muntazam kuzatish natijasida bu mavzuni o`rganish osonlashadi.




Tayoqcha - gnomon bilan ishlash



Meteorologik bo`dka asboblarni o`rnatish

O`qituvchi rahbarligidagi kuzatishlardan keyin o`quvchilar shunday xulosa



Oqar suvning ishi yuzasidan kuzatish o`tkazish

Quyoshning chiqishi va botishini kuzatish uchun gnomon – yog`och atrofida diametri

1 m bo`lgan aylana chiziladi. Oyda bir marta kuzatish olib boriladi. Yog`ochdan Quyoshning chiqish va botish tomoniga tushayotgan soyaning aylanani kesib o`tgan joylari chiziq bilan belgilab qo`yiladi. Quyoshning chiqish va botish vaqti belgilanadi va qayd etiladi.

Kuzatishlar kun va tunning davom etishini ham aniqlashga imkon beradi.

Quyoshning tush vaqtidagi balandligini kuzatish quyidagi tushunchalarning shakllanishiga yordam beradi. Botishi xamda uning fazalari o`zgarish vaqti haqidagi ma`lumotlarni Ozbekistonning varag`i yirtib olinadigan kalendaridan olishi mumkin.

O`quvchilar o`quv yilining dastlabki kunlaridan boshlab meteorlogik Kuzatishlar olib boradilar va uni yil oxirigacha davom ettiradilar. Ob-havo ustidagi kuzatishlar bolalarning II-III sinflarda olib brogan kuzatishlarining davomi

hisoblanadi. Ob-havo ustida olib borilgan doim kuzatishlar uquvchilarni o'z o'lkasining ilim xususiyatlarini tushunishga olib keladi, ob-havoning ayrim elementlari o'rtasidagi bog'liqlikni konkret misollar asosida tushunishga imkon beradi.

Asboblar yordamida olib boriladigan dastlabki mustaqil kuzatishlar uqituvchi rahbarligida geografiya maydonchasida o'tkaziladi. O'qituvchi o'quvchilarni havo temperaturasini o'lchash qoidalari bilan, flyugerga qarab shamolning yo'nalishini aniqlash bilan tanishtiradi.

O'qituvchi o'quvchilarga bulutlikni qanday kuzatish kerakligini tushuntiradi. «Ochiq», «bulutli» havo tushunchalarining mazmunini ta'kidlab o'tadi. Havoning temperaturasi va shamolning yo'nalishi tush vaqtda kuzatiladi, bulut bosganlik va yog'inlar xaqidagi ma'lumotlar kunning oxirida yozib qo'yiladi. O'qituvchi o'quvchilarni shamol yo'nalishi, bulutlik, yog'in turlari belgilanadigan shartli belgilar bilan tanishtiradi.

Kuzatish natajalari, “ Kuzatishlar kundaligiga” qo'yiladi, tabiatdagi va kishilar xayotidagi mavsumiy xodisalar tug'risidagi ma'lumotlarni ham shu yerga yozib qo'yish maqsadga muvofiqdir. Masalan, momaqaldiroq, issiq havo, dastlabki sovuqlar, hovuzlarning yaxlashi, paxta terimining boshlanishi va hokazo. Ob - havo ustidagi kuzatishlar quyidagi forma bo'yicha olib boriladi:

Ob - havoni kuzatish kundaligi

Sana	Havoning temperaturasi	Shamolning yo'nalishi	Bulutli	Yog'inlar	Quyoshning tush paytidagi balandligi	Tabiatdagi va kishilar hayotidagi mavsumiy o'zgarishlar

Individual tarzda "Kuzatishlar kundaligi»dan tashqari, sinf ob-havo kalendari ham olib borish tavsiya etiladi. Uning formasi tabiatshunoslik darsligida berilgan ilovada keltirilgan. Sinf ob-havo kalendaridagi yozuvlarni navbatchi o'qituvchilar olib boradilar.

Programmaning ob-havoni oldindan aytib borish xaqidagi masalasini o'rganish paytiga kelib o'quvchilarda yetarlicha ma'lumotlar zapasi to'planadi. O'quvchilar bu ma'lumotlarga tayanib ob-havoni tug'ri aytib berishga imkon beruvchi ba'zi hodisalarning eng oddiy bog'lanishlarini va qonuniyatlarini aniqlay olishlari mumkin.

Fenologik kuzatishlar. Butun tabiatshunoslik kursi tabiatdagi o'simliklarning gullashi, mevalarning pishib yetilishi, xazonrezgilik, qushlarning uchib kelishi va uchib ketishi kabi mavsumiy xodisalarning boshlanish vaqtini kuzatish bilan bog'langan. Ana shunga o'xshash kuzatishlar fenologik kuzatish deb ataladi, jonli tabiatning mavsumiy rivojlanish qonuniyatlarini muxit sharoitlariga bog'liq ravishda o'rganuvchi fan fenologiya deyiladi.

Tabiatda (masalan, ekskursiyalar vaqtida), qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida, maktab o'quv-tajriba o'chastkasida, geografiya maydonchasida fenologik kuzatishlar olib boriladi. Bu kuzatishlar ob-havoni kuzatish bilan mustahkam bog'langan. Tabiatdagi mavsumiy hodisalarni kuzatishdan ko'zda tutilgan maqsad quyidagilardan iborat;

- 1) mavsumiy xodisalar har qanday joy tabiatining asosiy xususiyatini tashkil etishini o'quvchilar ongiga yetkazish;
- 2) tabiatdagi davriy xodisalarni o'rganish xalq xo'jaligi uchun katta ahamiyatga ega ekanligini o'quvchilarga konkret misollarda ko'rsatib berish;
- 3) O'quvchilarda tabiatga muxabbat hissi va unda mustaqil tekshirish ishlari olib borish ishtiyoqi uyg'otish;
- 4) o'quvchilarni fenologik kuzatishlar o'tkazish metodikasi bilan tanishtirish;
- 5) o'simliklar hayotida va hayvonot olamida ro'y beradigan mavsumiy o'zgarishlar mazkur joyning tabiiy iqlim sharoitlariga bog'liq bo'lib, vaqt-vaqti bilan takrorlakib turishini o'quvchilarga ishontirish;

6) O`quvchilarda fenologik kuzatishlar, Quyoshning tush vaqtidagi balandligining mavsumiy uzgarishlari, xavo temperaturasining o`zgarishi hamda o`simliklarning rivojlanishi va hayvonlar hayotidagi, shuningdek kishilar faoliyatidagi mavsumiy hodisalar o`rtasidagi bog`likni aniqlash imkonini beradi.

Fenologik kuzatishlar jonajon tabiat hodisalari o`rtasidagi eng muhim bog`liqliklarni ko`rish imkonini beradi. Masalan, maynaning sayrashi boychechakning paydo bo`lishiga tug`ri keladi, bu esa bahorning belgisi, shaftolining gullashi – ko`klamdagi kecha kunduz barovarligiga, olmaning gullashi – tog` oldi rayonlarida daryo toshqinlariga tug`ri keladi; gilos va qulupnayning pishishi esa yoz boshlanganligidan dalolat beradi va hokazo.

Mavsumiy hodisalar ustidagi kuzatishlar o`quv yilining dastlabki kunlaridan boshlanadi. Kuzatishlar olib borish uchun o`quvchilarni gruppalariga bo`lish maqsadga muvofiqdir. Har bir gruppaga bir ob`ektni kuzatish topshiriqini oladi. Har bir gruppaga starosta tayinlanadi. Starostaning o`zi ham kuzatish olib boradi va bugun gruppaga a`zolarining kuzatishlarini bir kundalikka yig`adi, kuzatish natijalari xam shu yerga yozib qo`yiladi. O`qituvchi oyda bir marta kundalikni tekshiradi va yo`l qo`yilgan xatolarni ko`rsatgan xolda uni baxolaydi. O`quv yilining oxirida ayrim o`quvchilarning kundalikni yaxshi yurigranligini qayd qilish va ularni rag`batlantirish maqsadga muvofiqdir.

IV sinf o`quvchilariga darslikning 210-211- betlarida ko`rsatilgan fenologik kuzatishlar o`tkazish tavsiya etiladi.

IV sinf tabiatshunoslik darsligiga berilgan ilovalarda fenologik kuzatishlarni yozib borish formalari berilgan va kuzatish ob`ektlari ko`rsatilgan.

Kuzatishlar doirasi va kuzatish ob`ektlari imkonayatlarga va maktab joylashgan joy sharoitlariga qarab cheklangan bo`lishi yoki kengaytirilishi mumkin.

Kuzatish materiallari o`quv protsessida: ya`ni materialni o`rganishdagi suxbat va hikoya vaqtida foydalaniladi. Bu bilimlarning mustahkam va konkret bo`lishiga yordam beradi va katta amaliy ahamiyatga ega bo`ladi

2.2 Tabiiy geografiya darslarida geografiya maydonchasida tajriba darslarini o`tish metodlari.

Tajriba kuzatishdan jiddiy farq qiladi. Yuqorida aytilganidek, kuzatish vaqtida o`quvchilar tabiat hodisalarini ular tabiatda qanday sodir bo`lsa, shundayligicha idrok qiladilar va qayd etadilar. Bu xodisalarga hech qanday o`zgarishlar kiritilmaydi. Masalan, bolalar o`zlari yashayotgan joyning ob-xavosini har kuni kuzatadilar va olingan ma'lumotlarni (Xavo temperaturasi, yogin turlari, bulutlilik, shamolning yo`nalishi) o`zlarining «Kuzatishlar kundaligi»ga mumkin qadar aniq yozib qo`yadilar. Tajriba o`rganilayotgan hodisaning ma'lum bir shartlarini o`zgartirishni talab etadi. Masalan, kislorodning xossasini aniqlash uchun kaliy permanganatdan (yoki tarkibida kislorod bo`lgan boshqa moddalardan) kislorod ajratib olish, keyin esa unga tutab turgan cho`pni kiritish kerak; o`simliklar xayoti uchun zarur bo`lgan tashqi muhit sharoitlarini aniqlash uchun o`quvchilar sug`orish, yorug`lik, oziqlantirish rejimi har xil bo`lgan loviya (yoki boshqa o`simlik) o`stirib ko`radilar.

Tajriba vaqtida albatta kuzatish olib boriladi, chunki shunday qilinmasa, tajriba o`tkazishning ahamiyati bo`lmaydi.

Tajriba metodi o`rganilayotgan xodisani kuzatish metodiga qaraganda ancha batafsil va chuqur analiz qilishga, uning mohiyatini tushunishga; sabablarini, boshqa xodisalar bilan bog`liqlik tomonlarini aniqlashga imkon beradi. Masalan, tabiatda Quyosh tutilishini kuzatishning uzi, har qancha kuchli taassurot qoldirishiga qaramasdan, uning sabablarini aniqlash imkonini bermaydi. Tajriba protsessida, fonar, globus va ip o`tkazilgan sharcha (soga)dan foydalanib, o`quvchilar quyosh tutilishining mohiyati va sabablari tug`risida obrazli tasavvurlar hosil qiladilar.

Tajriba metodi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularda o`qishga nisbatan tadqiqotchilik nuqtai nazardan yondashish odatlari hosil qilishga yordam beradi. O`quvchilarning darsning u yoki bu problemalarini hal etishda qidiruv ishlari olib borishi ayniksa muhimdir. Mustaqil ravishda tajriba o`tkazish ularning bilish faoliyatini aktivlashtiradi. O`quvchilarni dialektik-materialistik, ateistik dunyo qarash ruxida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Bu haqida mazkur qo'llanmaning ikkinchi bobida aytib o'tilgan.

Tabiatshunoslikka oid tajribalar, kuzatishlar kabi qisqa muddatli va uzoq davom etadigan bo'lishi mumkin. Qisqa muddatli tajribalarni bir darsda o'tkazish mumkin (shar, aylana va gugurt qutisidan tushayotgan soyalar shaklini, elektr lampasidan tushayotgan yorug'lik burchagining yashikdagi qumning isish darajasiga ta'sirini, «tuman», « bulut», «yomg'ir» va hakazolarning hosil bo'lishini o'rganish . Uzoq davom etadigan tajribalar bir necha kun, hafta va oylar davomida o'tkaziladi (og'zi berkitilgan butilkadagi suvning yaxlagandagi kengayishi, to'yingan eritmadagi osh tuzi kristallarining tushishi, sugorish normalari turlicha bo'lgan va yoruglik miqdori turlicha tushgan sharoitda o'simliklarni o'stirish va boshqalar).

Tajribalar kuzatishga qaraganda ko'proq darajada bolalarning harakat faoliyatini nazarda tutadi. Axir bu prosesning borishiga ta'sir etishni qo'llarning ishtirokisiz tasavvur etish qiyin. Masalan, ma'lum bir moddaning erish yoki erimasligini tekshirish uchun o'quvchilar uni suvga soladilar, aralashtiradilar, keyin esa uning erigan-erimaganligini kuzatadilar. Biror bir tajriba yo'qki, unda eksperimentatorning harakat faoliyati ishtirok etmasin.

Tajribalar o'quvchilarga ob'ektning xossalari va holatini turg'un xolatda emas, balki ularning o'zgarishi, o'sishi, rivojlanishi holatini ko'rish va idrok qilishga imkon beradi. Bu jihatdan xam boshqa hech qanday metod tajribaning o'rnini bosa olmaydi. Shu sababli, o'quvchilarga ematsional ta'sir ko'rsatish kuchiga ko'ra, bu metod barcha o'qitish metodlaridan ustun turadi.

IV sinf tabiatshunoslik programmasi va darsligida juda ko'p tajribalar berilgan. Bu tajribalarni o'tkazish vaqtidagi o'quvchilarning mustaqillik darajasi turlichadir. Bir xil tajribalarni o'quvchilar mustaqil o'tkazishlari mumkin, boshqalarini bajarishda esa bolalarning mustaqilligi bir oz cheklangan bo'ladi. Ma'lumki, suvda eriydigan va erimaydigan moddalarni o'rganish, metallarning xossalari tekshirish, turli sharoitlarda o'simliklar o'stirish, tuproqda suvning kapillyarligini ko'rish yuzasidan olib boriladigan tajribalarni o'quvchilar mustaqil ravishda o'tkazishlari mumkin. Kislorod va karbonat angidrid

gazlarining

xossalarini o`rganishga oid tajribalarda bolalarning ishtiroki cheklanadi: kaliy permanganatdan kislorodning va ohaktoshdan karbonat angidridni o`qituvchining o`zi oladi, olingan gazlar cho`pning yonishiga qanday ta`sir etishini esa o`quvchilarning o`zlari tekshiradilar.

Mustaqillik darajasidan qat'iy nazar hamma tajribalar kuzatishlar kabi o`quvchilar tomonidan o`qituvchining rahbarligi va nazorati ostida bajariladi. O`qituvchidan har bir tajribaga jiddiy tayyorgarlik ko`rish talab etiladi. Tajriba uchun kerakli bo`lgan xamma

asboblarni puxta o`ylab ko`riladi va ularning ro`yxati tuziladi. O`qituvchi tajriba o`tkazish texnikasini mukammal egallagan bo`lishi, tajriba prosessida qo`llanilishi talab etiladigan asboblarni va moddalardan moxirona foydalana olishi kerak. Shuning uchun tajriba o`tkazish mo`ljallanadigan darsga tayyorlanish vaqtida o`qituvchining o`zi tajribaning xamma bosqichlarini bajarishi, bunda ularning ketma-ketligini diqqat bilan o`ylab ko`rishi lozim. Ba'zi tajribalar yuzasidan fizika, ximiya, geografiya O`qituvchilarining konsultatsiyasi lozim bo`lib qoladi (masalan, kislorod va karbonat angidrid gazni olish va ularning xossalarini o`rganish bilan bog`liq tajribalar, xavoning tarkibini o`rganish, xavoning xossalarini o`rganish, dissilyatsiya qilingan suvni olish, elektrofor yordamida «momaqaldiroq» va «chaqmoq» hosil qilish, telluriy bilan ishlashga doir tajribalar va hokazo).

IV sinf o`quvchilari tomonidan o`tkaziladigan tajribalarni shartli ravishda ikki gruppaga bo`lish mumkin: 1) dars vaqtida sinfda o`tkaziladigan laboratoriya tajribalari; 2) maktab o`quv-tajriba uchastkasi, maktab teplitsasi, geografiya maydonchasida o`tkaziladigan dala tajribalari. Sabzavot ekinlari yoki manzarali o`simliklarni o`stirishga oid tajribalar ham shular qatoriga kiradi: a) sug`orish soni turli xil bo`lganda; b) turli miqdorda o`g`it solinganda; v) o`simliklarni yoritilish vaqti har xil bo`lganda. Bu tajribalar o`quvchilarga tashqi muhit sharoitlarining o`simliklar uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini ko`rsatishi kerak; geografiya maydonchasidagi tajribalar: a) suv sathidagi va quruqlikdagi havo

temperaturasining o'zgarishi; b) balandlashgan sari havo temperaturasining o'zgarishi; v) jarlarning hosil bo'lishi; g) daryo vohasining hosil bo'lishi.

Har bir tajriba uchun o'quv-tajriba o'chastkasida kontrol va tajriba paykallari ajratiladi. Bularning har birida o'stiriladigan o'simliklar bir xil sharoitda bo'ladi, ammo biror narsaning ta'siri aniqlanmoqchi bo'lgan o'simlik bundan mustasno. Masalan, o'simlikning, pomidorning hosildorligiga suvning ta'sirini aniglash uchun kontrol paykaldagi o'simlik normal holatda, ya'ni 9-10 kundan keyin, tajriba paykaldagisi esa 5-6 kundan keyin sug'oriladi. So'ngra olingan natijalar taqqoslanadi va xulosalar chiqariladi. Xuddi shu tajribani ikki variantda o'tkazish mumkin: normal va kam sug'orilganda, normal va ortiqcha sugorilganda. Bunda tajriba uchun ikki emas, balki uch paykal ajratish kerak bo'ladi.

Tajribaning borishi hamda tajriba va kontrol o'simliklarniig rivojlanishi ustidagi kuzatishlarni o'quvchilar "Kuzatishlar kundaligi"ga yozib qo'yadilar.

2.3 Sinov darsi: Ob-havo qanday bo'lishini oldindan aytish.

(dars sinfda va geografiya maydonchasida o'tkaziladi) .

Darsning maqsadi. Bolalarga geografiya maydonchasidagi kuzatishlar qanday olib borilishini kursatish; ob-havoning o'zgarish sabablarini va insonning xo'jalik - faoliyatida ob-xavoning ahamiyatini ko'rsatish.

Darsning plani.

1. Ob-xavo ustida olib boriladigan kuzatishlar xaqida suxbat.
2. Ob-havo ustida olib borilgan kuzatishlarni ishlab chiqish (yakunlash) .
3. Geografiya maydonchasi va ob-havoni kuzatish uchun kerakli asboblardan tanishish.
4. Ob-havo qanday bo'lishini oldindan aytishning xalq xo'jaligidagi ahamiyati.
5. Darslikning 79-82- betlaridagi maqolani o'qish.
6. Ob-havo qanday bo'lishini oldindan aytishning mahalliy belgilari (o'qituvchining hikoyasi).
7. Uyga vazifa.

Jihozlar. Geografiya maydonchasida joylashgan ob-havoni kuzatish asboblari, ob-havo kalendari, “Ob-havoning oʻzgarish belgilari” suratlari.

Darsning mazmuni. Dars sinfda berilgan uy vazifasini tekshirishdan boshlanadi. Oʻqituvchi quyidagi savollarni berishi mumkin: Oʻzbekistonda bahor boshqa yil fasllaridan qanday xususiyatlari bilan farq qiladi? Nima uchun yozda issiq, qishda sovuq boʻladi? Ob-havoda kuzda qanday oʻzgarishlar kuzatiladi?

Oʻqituvchi oʻquvchilar bilan suhbat oʻtkazadi. Oʻqituvchining topshirigʻiga binoan oʻquvchilar havo temperaturasining oʻzgarishini, havo yoʻnalishining oʻzgarishini, bulutli kunlar va yogʻinlar yogʻishini qanday kuzatganliklari xaqida javob beradilar.

Shundan keyin oʻquvchilarning kuzatishlari asosida ob-havo tugʻrisidagi tushunchalar hosil qilinadi. Oʻqituvchi « Ob-havo nima? Ob-havo deb nimaga aytiladi?», degan savollarni beradi.

Oʻquvchilar ob-havoning ayrim elementlarini aytadilar. Oʻqituvchi ularning javobini toʻldiradi-havoning temperaturasi, shamol, bulutlar va yogʻinlar hammasi birgalikda ob-havoni tashkil etadi.

Oʻqituvchi shunday savol beradi: kuzatganda ob-havoning qanday xususiyatini payqash mumkin (havoning tez-tez oʻzgarib turishini)? Oʻqituvchi toʻliq taʼriflab beradi: mana shu joyda shu vaqtda atmosfera quyi atlamining holati ob-Havo deb ataladi.

“Ob-havo” tushunchasiga taʼrif berilgandan keyin oʻqituvchi oʻquvchilarning ob-xavo ustida olib borgan kuzatishlarini ishlab chiqish yuzasidan amaliy ish oʻtkazadi. U oʻquvchilarga avvalgi oydagi ob-havo kuzatishlarini yakunlashni taklif qiladi.

Oʻquvchilar bir oy mobaynida bulutli va ochiq kunlar necha kun boʻlganligini, koʻproq qaysi shamollar, qaysi yoʻnalishda esganligini, necha kun yogʻinli boʻlganligini aniqlaydilar.

Oʻqituvchi oʻquvchilar eʼtiborini hozirgi oydagi temperaturaning oʻzgarishiga qaratadi va uni avvalgi oydagi oʻzgarishlar bilan taqqoslaydi. Temperaturaning oʻzgarishi nima bilan bogʻliqligini tushuntiradi. Shunday savol berish mumkin:

Ob-havoni shunchalik o'zgartirib yuborgan shamol qayerdan kelgan? O'quvchilar ob-havoning o'zgarish sabablarini (shimoliy shamolning kelishini) aniqlaydilar. SHundan keyin o'qituvchi o'quvchilar bilan geografiya maydonchasiga chiqadi.

O'qituvchi o'quvchilarni geografiya maydonchasi bilan tanishtiradi. U yerda ob-havoning o'zgarishlari ustida kuzatishlar olib boriladi va bu o'zgarishlarning sababtari aniqlanadi o'quvchilar turli xil asboblardan bilan tanishishlari kerak. Bu asboblardan yordamida kuzatishlar olib boriladi.

Geografiya maydonchasidagi meteorologik asboblardan bilan tanishilgandan keyin o'qituvchi kishilar faoliyati uchun ob-havoning ahamiyati haqida, ob-havo qanday bo'lishini oldindan aytishda meteorologiya stansiyalarining roli tug'risida gapirib beradi. Ob-havoni oldindan aytish juda qiyin ish. Meteorologiya stansiyalari ob-havoning sutkasiga to'rt marta kuzatib, kuzatish natijalarini Moskvaga - SSSR Gidrometsentriga ma'lum qiladilar. U yerda berilgan ma'lumotlar asosida ob-havo prognozi va kartalari tuziladi. O'quvchilarga eng oddiy sinoptik kartani ko'rsatish va ularni kartadagi izohlar bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Sinoptik kartaga qarab ertaga va yaqin kunlar ichida ob-havoning qanday bo'lishi haqida gapirib berishi mumkin.

O'qituvchi mamlakatimizda-Qizilqumda, Tyan-Shan va Pomir tog'larida, Tayga va Antarktidada ishlab turgan meteorologiya stansiyalari haqida gapirib beradi. Bu stansiyalar ob-havoni kuzatib boradilar va ma'lumotlarni ob-havo byurosiga ma'lum qiladilar.

O'qituvchi mahalliy ob-havo belgilarini aytib o'tadi. Tajribaning ko'rsatishicha, ob-havoni oldindan aytishda xalq tajribalari asosida to'plangan belgilar xaqidagi material doimo o'quvchilarda zo'r qiziqish uyg'otadi. O'qituvchi darslikning 79-80- betlaridagi maqolani o'qishni taklif etadi. Bu maqolada ob-havo o'zgarishinnng maxalliy belgilari haqida gapiriladi. Maqola o'qilgandan keyin muhokama qilinadi va suhbat o'tkaziladi.

O'qituvchi "Ob-havoning o'zgarish belgilari" rasmini ilib qo'yadi hamda o'quvchilarning e'tiborini darslikdagi V va VI rangli tablitsalarga jalb etadi.

O`qituvchi sinfga shunday savol beradi: Rasmlarda ob-havoning yaxshilanishi va yomonlashishiga oid qanday belgilar tasvirlangan? O`qituvchi o`quvchilarga ob-havoni oldindan aytishning o`zlariga ma'lum bo`lgan belgilari xaqida gapirib berishni taklif qiladi. O`qituvchi bolalar tomonidan aytilgan xar bir belgini tushuntirishi va ularning nima uchun tug`ri yoki notug`riligi hakida gapirib berishi kerak.

Darsning oxirida ob-havoni oldindan aytishning asosiy mahalliy belgilarini aytib o`tish maqsadga muvofiq. Tabiatning dahshatli kuchlariga qarshi olib borilgan ming yillik kurash kishilarni nozik kuzatuvchi bo`lishga, hayvonlarning xatti-harakati va o`simliklarning holatiga qarab ob-havodagi yangilashib kelayotgan o`zgarishlarni payqab olishga o`rgatdi. Quyosh, Oy, yulduz va bulutlarga qarab ham ertangi kun qanday bo`lishini oldindan aytish mumkin.

Misollar keltiramiz:

1. yangi oy paydo bo`lishidan uch kun ilgari ob-havo o`zgaradi.
2. Quyosh va Oy atrofida doiralar bo`lsa-yog`ingarchilik bo`ladi.
3. Kun botarda osmonning qip-qizarib ko`rinishi, havo ochiq bo`lishidan dalolat beradi.
4. Kechki shafaq, sap-sariq yarqirab tursa-yog`ingarchilik olib keladi.
5. Agar yomg`ir yirik tomchilar bilan boshlansa, u tezda tinadi.
6. Past, tez harakat qilayotgan qora bulutlar yomgir olib keladi.
7. Tez harakat qilayotgan patsimon bulutlar-ob-havoning buzilishidan darak beradi.
8. Kechasi, ertalab shudring yoki qirov tushsa-havo ochiq bo`ladi.
9. Tutun yuqori ko`tarilsa - havo ochish bo`ladi, yoniga taralsa – yog`ingarchilik bo`ladi.
10. Agar ertalab asalarilar uyalaridan chiqmay, g`ing`illayversalar – yomg`ir yog`adi.
11. Agar tovuqlar yomgir yog`ayotganda ham tovuqxonaga kirmasalar –yomg`ir yog`ishi uzoq davom etadi.
12. Qarg`a xo`rpaysa – yomg`ir yog`adi.

13. Chivinlar g`uj-g`uj bo`lib uchsa havo ochiq bo`ladi.

14. Qoqi o`gullarini burishtirsa – yomg`ir yog`adi.

15. Gulning hidi o`tkirlashsa – yomg`ir yog`adi.

Darsning yakunlovchi qismida mustahkamlash uchun quyidagi savollarni berish mumkin:

1) Geografiya maydonchasini jixozlashdan maqsad nima?

2) Meteorologiya stansiyasida qanday asboblari bor?

3) Havoning temperaturasi qanday asboblari bilan o`lchanadi?

4) Flyuger yordamida nima kuzatiladi?

5) Ob-havo deb nimaga aytiladi?

6) Hozirgi kundagi ob-havoni tavsiflab bering.

7) Inson uchun ob-havo qanday ahamiyatga ega?

8) Meteorologiya stansiyalari kuzatishlariga qarab ob-havoni qanday qilib oldindan aytish mumkin?

9) Ob-havoni oldindan aytishning qanday mahalliy belgilarini bilasiz?

Uyga vazifa. Darslikdan «Ob-havo qanday bo`lishini oldindan aytish» maqolasini o`qib kelish (79-83- betlar). Uzlari yashab turgan joyda ob-havoni oldindan aytishning xalq, tajribalari asosida to`plangan belgilari bilan tanishish.

2.4 Sinov darsi: Yerning quyosh arofida aylanishi.

(aralash dars),(dars sinfda va geografiya maydonchasida o`tkaziladi) .

Darsning maqsadi. Yil fasllarining almashinishi qanday ro'y berishini kuzatish.

Darsning plani. 1. Quyoshning yerning atrofida aylanishi haqidagi bilim va malakalarini tekshirish.

1) O'quvchilarning yerning o'z uqi atrofida aylanishi haqidagi bilimlarini aniqlovchi suhbat.

2) Pildirots yordamida ikki harakatning ayni bir vaqtda yuz berishini ko'rsatish.

3) O'quvchining yerning quyosh atrofida aylanishi va yil fasllarining almashinishi haqidagi hikoyasi.

4) Globus va sham bilan utkaziladigan tajribani kursatish.

5) Uyga vazifa berish.

Jihozlar. Globus, telluriy (yoki lampa), pildirot, yarim sharlar kartasi. O'qituvchi tomonidan tayyorlangan «yil davomida biz yashayotgan joyda gorizontga nisbatan quyosh balandligining o'zgarishi» nomli jadval, tug'nagich.

Darsning mazmuni. Dars uy vazifasini tekshirishdan boshlanadi: o'qituvchi topshirig'ining (Toshkent va Moskva shaharlaridan gorizontning turli tomonlariga chiziqlar o'tkazish) to'g'ri bajarilganligini tekshiradi. O'qituvchining topshirig'iga binoan Uquvchilar globusda Toshkent va Moskvada ertalabki payt, tush payti va quyoshning botish va chiqishidagi yerning holatini ko'rsatadilar.

Utsuvchilarning bilimlari suvidagi savollar asosi- da tekshiriladi: 1) Sutka nima? 2) Kun va tunning almashinishiga sabab nima? 3) Qutblar, ekvator, paralellar va meridianlar deb nimaga aytiladi?

III sinfda tabiatshunoslik darslarida uquvchilar yerning quyosh atrofida aylanishi (yil fasllarining almashinishi shunga bog'liq) tug'risida eng oddiy tasavvurlarga ega bo'lgan edilar. Mazkur darsda esa Uquvchilar shu bilimlarni esga tushirishlari kerak. SHu maqsadda uqituvchi bolalar bilan haqidagi savollar bo'yicha suhbat o'tkazadi: 1) yil fasllari nima uchun almashinib turadi? 2) yer quyosh atrofini qancha vaqt ichida aylanib chiqadi? Bu vaqt nima deb aytiladi?

Bolalarning III sinfda o'zlashtirib olgan yerning quyosh atrofida aylanishi haqidagi bilimlari yil fasllaring almashinish sabablarini ko'rsatuvchi umumiy manzarani tashkil etadi, xolos. O'qituvchi ana shu bilimlarga tayanib, bolalarda ancha tuliq tushuchalarni shakllantiradi.

O'qituvchi yangi materialni bayon qilishga o'tar ekan, bolalarga yer aynan bir vaqtning o'zida ikki xil, ya'ni Uz o'qi atrofida — sutkalik va quyosh atrofida — yil- lik harakat qiladi deb aytadi. Bu harakatlarni pildirotsning harakati bilan taqqoslash mumkin.

O'qituvchi pildirotsni olib, uni stol ustida shunday aylantiradiki, u stol ustida aylanayotib doira bo'ylab harakat qiladi.

O'quvchilarga shunday savol beriladi: Pildirots necha marta aylanmoqda? Bu qanday harakat hisoblanadi?

O'qituvchi doskaga «Erning yillik harakati» degan rasmni ilib qo'yadi (agar maktabda bunday rasm bo'lma, doskaga yerning quyosh atrofidagi harakatini ko'r- satuvchi rasm chiziladi). O'quvchilar darslikdagi rangli jadvalni analiz qiladilar.

O'qituvchi qaytadan yer quyosh atrofini 365 kunda aylanib chiqadi. yerning quyosh atrofini bir marta aylanib chiqishi uchun ketgan vaqt yil deyiladi, deb eslatadi. O'quvchilarning diqqat e'tibori yerning quyosh atrofini aylanishdagi holatiga qaratiladi: yerning xayoliy obrazi globusdagi singari qiya bo'ladi. yerning o'zi har doim qiya turadi va quyosh atrofini aylanayotganda yer o'z holatini o'zgartirmaydi.

Er yuzining shunday holatda bo'lishi va uning quyosh atrofida aylanishi tufayli yil fasllari almashinib turadi. Agar maktabda telluriy bo'lsa, bu tajribani telluriy bilan o'tkazish maqsadga muvofiq. (15-rasm). Telluriy bo'lmasa, o'qituvchi bu tajribani globus va sham yoki lampa bilan kursatadi (darslikdagi 11-rayem).

O'qituvchi stolga lampa yoki shamni qo'yib, globusni qo'lga oladi, globusning shunday holatini topadiki, bunda yorug'lik bilan soyaning chegarasi aynan bir vaqt ning o'zida ikkala qutbdan o'tsin. Kuzda (23 sentyabrda) yer shunday holatni egallaydi. Ana shu vaqtda quyosh tush paytida ekvatorda odamning tepasida buladi.

¹ ye. M. Velskaya, A. G. Grigoryans, T. A. Abdulla* yevalarning 3-sinf uchun chnsarilgan «Tabiatshunoslik» darsli- giga karang, 3- nashri, Toshkent, «Utsituvchi» nashriyoti



15- rasm. Telluriy bilan ishlash.

O'qituvchi globusni lampa atrofidan aylantiradi va bolalarga yer quyosh atrofida aylanish yo'lining chorak qismidan o'tganda Janubiy yarim shar ko'proq yori tilishini kursatadi (22 dekabrda holat), So'ngra o'quvchilarga savol beradi:

- 6) Qaysi yarim shar ko'p yoritilgan?
- 7) Qaysi yarim shar kam yoritilgan?
- 8) SHimoliy yarim sharda qanday fasl?

yer 22 dekabrda xuddi shunday holatda turadi.

O'qituvchi xulosa chiqaradi. Ana shu paytda SHimoliy yarimga quyosh nurlari Janubiy yarim sharga qaraganda ancha qiyaroq tushadi. Bu yerda kun Janubiy yarim sharga qaraganda qisqaroq bo'ladi. SHimoliy yarim sharga issiqlik va yorug'lik kam tushadi. Ana shunday holatda yerning SHimoliy yarim sharida — qish, Janubiy yarim sharida esa yoz bo'ladi. SHundan keyin o'qituvchi globusni shamga (quyosh) nisbatan shunday holatga

qo'yadiki, bunda yer shari quyoshga nisbatan 22 mart va 22 iyun kunlari shunday holatda turadi. O'quvchilar bu tajribani o'z globuslarida takror laydilar. Agar maktabda globuslar yetarli bulmasa, bir necha o'quvchi navbati bilan o'qituvchi yoniga chaqiri ladi va uning topshirig'iga binoan yerning quyoshga nisbatan 22 mart (bahor), 22 iyun (yoz), 23 sentyabr (kuz) va 22 dekabr (qish) kunlaridagi holati ko'rsatiladi.

O'quvchilarning e'tiborini yilning turli faslla rida quyoshning yer yuzasidan balandligi o'zgarib bo rishiga qaratish juda muhimdir.

O'quvchilarga darslikdagi 12-rasmni (Toshkentda tush payti bo'lganda quyoshning gorizontdan balandligini) ko'zdan kechirish taklif qilinadi.

Bunda o'quvchilarning quyosh balandligi ustida olib borgan kuzatishi natijalaridan foydalanishlari o'rinlidir. O'qituvchi yana bir tajriba qilib ko'rsatadi. Globus yuzasiga perpendikulyar ravishda ekvatorga va Toshkent shahri joylashgan yerga tug'norich sanchib qo'yiladi. SHam (yoki lampa) holatini ekvator va Toshkentdagi to'g'norichlarga nisbatan uzgartira borib, o'qituvchi Toshkent va ekvatorda yilning turli fasllarida (bahor, yoz, kuz va qishda soyaning uzunligi qanday uzgari shini ko'rsatadi. O'qituvchi rahbarligida o'quvchilar shunday xulosa chiqaradilar: quyoshning gorizontdan balandligi yil davomida o'zgarib turadi, kun bilan tunning uzunligi ham o'zgaradi. Quyosh gorizontdan qanchalik baland va kun uzun bo'lsa, shunchalik issiq bo'ladi va aksincha. Dars oxirida o'quvchilar daftarlarga yerning yil lik harakati sxemasini, yil fasllarining almashini shini, 22 iyun va 22 dekabrda yerning quyoshga nisbatan holatini chizadilar.

Agar vaqt yetarli bo'lsa, dars oxirida «Erning sut kalik va yillik harakati» filmidan fragmentlar ko'rsatish mumkin.

Uyga vazifa. Daftardagi va darslik ilovasida berilgan rangli jadvaldagi sxemalarni ko'zdan kechirish va yerning quyoshga nisbatan u yoki bu holati yilning saysi faslida bo'lishini gapirib bera olish.

Xulosa

Tabiiy geografiya fanlarini o'rganishda kompleks geografiya maydonchasi va uning geografiya ta'limida tutgan o'rni mavzusida yozilgan bitiruv malakaviy ishimda o'quvchilarni tabiiy geografiya fanlarida o'tkazilayotgan tajriba va kuzatish darslarida tabiatdagi narsa va hodisalar to'g'risida dastlabki tasavvurlarni hosil qilishga imkon beradi. Geografiya maydonchasidagi kuzatishlar tabiiy geografiya kurslari mazmuniga kuzatuvchilardan ancha uzoq masofada bo'lgan tabiat ob'ektlari tushunchalar to'g'risida puxta bilim egallashda qo'llaniladigan usullardan qo'lladim.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki geografiya maydonchasida o'quvchilarni mukammal bilim olishga, ularda fanga bo'lgan qiziqishni orttirishga xizmat qiladi. O'quvchi faqat darsxonalardagina bilim olib qolmasdan balki, mustaqil ravishda bilim to'plash, izlanish va taqqoslab tahlil qilishni bilish kerak.

Kompleks geografiya maydonchalarida tajriba darslarini o'qitish metodikasini bitiruv malakaviy ishimda mavzuni tanlagan edim. Hozirgi kunda dolzarbligi va uning maktab geografiya kursida katta ahamiyat kasb etishdir. Ze'ro, inson o'zining yashab turgan joyi uning muhiti va tabiati, undagi o'zgarishlarning mohiyatini vujudga kelishi va qonuniyatlarini bilmay turib boshqa bilimlarni egallay olmaydi.

Men shuning uchun ham amaliyot, tajriba kuzatish darslari har bir o'quvchining dunyoqarashini oshirish geografiya darslarini mazmunini belgilab beradi deb bilaman.

Geografiya maydonchasida olib borilgan amaliy mashg'ulot va mustaqil ishlash davomida o'quvchilarga mehnat tarbiyasi singdiriladi. Geografiya maydonchasida o'quvchilar metrologik asbob uskunalar havoning namligini, shamolning yo'nalishini va tezligini yog'inlar miqdorini qor qalinligini aniqlash uchun foydalanadilar. Shu bilan birga maxsus asbob uskunalar yordamida tog' jinsi va mineral namunalarni o'rganadilar. Sun'iy tepalik, sun'iy hovuz, daryo modeli atrofdagi tuproq namunalari asosida tajribalar

olib o'tkaziladi. Bularning hammasi o'quvchilardan muayyan jismoniy mehnat talab etadi.

Mavzuni o'rganishda ayrim vazifa topshiriqlarni bajaradilar. Bu ishlar o'quvchilardan mehnat qilishni talab etadi. Buning natijasida zarur geografik ko'nikma va malakalar ortishi bilan o'quvchilar mehnat qilishga odatlanadilar.

Geografiya maydonchasidagi amaliy va mustaqil ishlarni muntazam bajarish bilan birga ularning sifati va estetik tomonga alohida e'tibor berib, o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini fikrlash doirasini kengayishiga olib keladi deb bilaman.

Adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlari.

- 1.1. Karimov I.A. “Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili”. T. “O‘zbekiston”. 1995
- 1.2 Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2-jild. Toshkent, O‘zbekiston nashriyoti. 1996-yil.
- 1.3. Karimov I.A. “O‘zbekiston XX1 asr bo’sag’asida: xavsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. T. “O‘zbekiston”. 1997
- 1.4 Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q.// Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. – T.: O‘zbekiston, 1999.
- 1.5 Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. – T.: O‘zbekiston, 2005.
- 1.6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat. 2008.
- 1.7. Karimov I.A. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir. - T.: O‘zbekiston, 2012.

Me’yoriy hujjatlar.

- 1.1. ”Geografiya dasturi standarti”. 1999 yil
- 1.2. «Ta’lim standarti va dasturi». Toshkent ”O`qituvchi” 2000 yil
- 1.3. ”Ta’lim tizimi’ va ”Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qonunlari”.

Asosiy adabiyotlar

- 1.Abdug’aniev O. “Geografiya darslarida texnika vositalaridan foydalanish”. T. “O’qituvchi” 1995
2. Aksakalova G.P. “Uroki obobshayushego povtoreniya pri izuchenii obshego obzora otraeja narodnogo xozyaystva” SSR (VIII klass). Sb. “Uroki geografii v shkole”. M. “Prosveshenie”. 1967
- 3.Aksakalova G.P. , Andreev N.V. “Metoidicheskoe posobie po fakultativno`m kursam”. M. 1978
4. Anuchin D.N. “Izbrannie geograficheskiye raboty”. M. 1949

5. Arjanov S.P. "Metodika nachalnogo kursa geografii". M. 1922
6. Asonova G.S. "Samostoyatelnie raboto` uchasnikoe po geografii" SSR "Prosveshenie". M. 1974
7. Asanova G.S. "Sistema samastoyatelnix rabot po kursu fizicheskoy geografii" SSR M. "Prosveshenie . 1974

Internet saytlari.

- 1.w.w.w.google.uz.
- 2.w.w.w.education.uz.
- 3.w.w.w.jmq.uz.
- 4.w.w.w.eco.com.

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti Tabiatshunoslik fakulteti Geografiya va iqtisodiy bilimlar fakulteti
iybilimasoslarita'limyo'nalishi IV kurs "A" guruh talabasi Sodiqova
Saltanat Xoliqulovna Geografiya darslarida „Geografik maydonchadan“
foydalanishning amaliy ahamiyati mavzusida yozgan bitiruv malakaviy
ishiga ilmiy rahbar

XULOSASI

Sodiqova Saltanat Xoliqulovna Geografiya darslarida „Geografik maydonchadan“ foydalanishning amaliy ahamiyati mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishida geografiya fanlarini o'rganishda kompleks geografiya maydonchasi va uning geografiya ta'limida tutgan o'rni mavzusida yozilgan bitiruv malakaviy ishida o'quvchilarni tabiiy geografiya fanlarida o'tkazilayotgan tajriba va kuzatish darslarida tabiatdagi narsa va hodisalar to'g'risida dastlabki tasavvurlarni hosil qilishga imkon beradi.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida Umumta'lim maktablarining tabiiy geografiya fanlarida o'tkaziladigan tajriba va kuzatish materiallariga asoslangan ta'limning ahamiyati. 3 ta kichik mavzular asosida yoritilgan bo'lsa, asosiy qismning II bobida Maktab tabiiy geografiya darslarida geografiya maydonchasida kuzatish, tajriba va amaliy ish darslarida foydalanish metodlari.

4 ta kichik mavzular asosida noan'anaviy dars ishlanmalaridan foydalanib atroflicha ochib berilgan. Dars jarayonida geografiya maydonchasida olib borilgan amaliy mashg'ulot va mustaqil ishlash davomida o'quvchilarga mehnat tarbiyasi singdirilgan. Bu kabi darslarni ko'proq tabiiy geografiya darslarida qo'llash o'rinli chunki bu davrga kelib o'quvchilarning fikrlash doirasi, bilim saviyasi, iqtidori ancha yuqori bo'lib quyi sinflarda olgan tayanch bilimlarga asoslangan hodda berilgan muammoni yecha oladilar. Ushbu ilmiy ishida nihoyatda qiziqarli va izlanishni talab etadigan, o'quvchini o'z ustida ishlashga majbur etadigan amaliy mashg'ulot va mustaqil ishlar bor. Mavzuni o'rganishda ayrim vazifa topshiriqlarni bajaradilar. Bu ishlar o'quvchilardan

mehnat qilishni talab etadi. Buning natijasida zarur geografik ko'nikma va malakalar ortishi bilan o'quvchilar mehnat qilishga odatlanadilar.

Mavzusini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanish metodlari misolida kuzatish, tajriba darslari keng yoritib bergan. Bu orqali o'quvchilarni darsga qiziqtirish, malakaviy bitiruv ishidan joy olgan 1 ta mavzuni yuqori darajada ifodalovchi 1 ta karta sxema, chizmalar, shartli belgilar, rasmlar, jadvallar, muommoli topshiriqlar usuli va 2 ta ochiq dars ishlanmasi bitiruv malakaviy ishining mazmunini yanada boyitgan.

Saltanat mavjud adabiyotlardan, ilmiy to'plamlardan, joy plani, karta sxemalar, jadvallar, oqilona foydalangan. Eng avvalo «Ta'lim to'g'risidagi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qonunlaridan kelib chiqib, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim tizimining asosiy g'oyalarini o'zida mujassamlashtiradi. Mamlakatimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq umumiy o'rta ta'limning barcha bo'g'inlarida o'quvchilarning muntazam bilim olishi, ularda mustaqil ijodiy fikrlash, kasb tanlashga va atrof muhitga ongli munosabatni hosil qilish, milliy va umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilish o'z Vataniga, xalqiga sadoqat, mehr — muhabbat ruhida tarbiyalash tamoyillari aks ettirilgan. Davlat Ta'lim Standartlari talablariga javob bera oladigan tarzda o'z ishini yozib tugatgan.

Men bu ishni mazmunan tugatilgan deb hisoblab DAK yig'ilishida himoya qilishiga tavsiya etaman.

Geografiya kafedrası katta o'qituvchisi:

Z.A. Abdiyeva.

**Navoiy Davlat Pedagogika Instituti Tabiatshunoslik fakulteti Geografiya va
iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishi IV kurs "A" guruh talabasi
Sodiqova Saltanat Xoliqulovna Geografiya darslarida „Geografik
maydonchadan“ foydalanishning amaliy ahamiyati mavzusida yozgan
bitiruv malakaviy ishiga**

TAQRIZ

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan ta'lim - tarbiya samaradorligini oshirish jahon ta'lim standartlari darajasida bilim berish orqali har tomonlama yetuk ijodkor ma'naviy boy, kasb-hunarli, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy istiqlool g'oyasi ruhida tarbiyalangan, o'z mustaqil fikriga ega barkamol shaxsni kamolga yetkazish kabi vazifalarni hal etishda ta'lim muassasalarining pedagogik jamoasi xususan har bir fan o'qituvchisi o'z pedagogik faoliyatini tubdan o'zgartirishi lozim.

Sodiqova Saltanat Xoliqulovna Geografiya darslarida „Geografik maydonchadan“ foydalanishning amaliy ahamiyati mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishida mavzuga mos reja tanlangan va rejaga kiritilgan barcha boblar mavzuni mazmunan keng yoritib bergan Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida Umumta'lim maktablarining tabiiy geografiya fanlarida o'tkaziladigan tajriba va kuzatish materiallariga asoslangan ta'limning ahamiyati. 3 ta kichik mavzular asosida yoritilgan bo'lsa, asosiy qismning II bobida Maktab tabiiy geografiya darslarida geografiya maydonchasida kuzatish, tajriba va amaliy ish darslarida foydalanish metodlari.

4 ta kichik mavzular asosida noan'anaviy dars ishlanmalaridan foydalanib atroflicha ochib berilgan. Amaliyot, tajriba kuzatish darslari har bir o'quvchining dunyoqarashini oshirish geografiya darslarini mazmunini belgilab bergan.

Dars jarayonida 1 ta karta sxema, shartli belgilar, rasmlar, chizmalar, jadvallar Muommoli topshiriqlar usuli va 2 ta ochiq dars ishlanmasi bitiruv

malakaviy ishining mazmunini yanada boyitgan. Ushbu ilmiy ishda nihoyatda qiziqarli va izlanishni talab etadigan, o'quvchini o'z ustida ishlashga majbur etadigan noan'anaviy dars metodlaridan foydalangan. Mamlakatimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq umumiy o'rta ta'limning barcha bo'g'inlarida o'quvchilarning muntazam bilim olishi, ularda mustaqil ijodiy fikrlash, kasb tanlashga va atrof muhitga ongli munosabatni hosil qilish, milliy va umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilish o'z Vataniga, xalqiga sadoqat, mehr — muhabbat ruhida tarbiyalash tamoyillari aks ettirilgan. Davlat Ta'lim Standartlari talablariga javob bera oladigan tarzda o'z ishini yozib tugatgan.

Malakaviy bitiruv ishida yuqorida zikr etilgan masalalar o'z yechimini topgan, uni himoya qilish uchun tavsiya etaman.

Geografiya kafedrası katta o'qituvchisi:

O'rinov.B.S.

**Navoiy Davlat Pedagogika Instituti Tabiatshunoslik fakulteti Geografiya va
iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishi IV kurs "A" guruh talabasi
Sodiqova Saltanat Xoliqulovna Geografiya darslarida „Geografik
maydonchadan“ foydalanishning amaliy ahamiyati mavzusida yozgan
bitiruv malakaviy ishiga**

TAQRIZ

Ta'lim sohasidagi yuzbergan o'zgarishlar qatorida pedagogik jarayonning mazmun mohiyati metodlar ayniqsa keskin o'zgardi. Yangi pedagogik texnologiyalar amalga tadbqiq qilina boshlandi, hozirgi davr ta'lim jarayonini yangi sifat ko'rsatkichlariga olib chiqish mumkin bo'lgan metodlar tizimiga aylandi. Jahonda rivojlangan davlatlarning tajribasi ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda o'quvchi – yoshlarning bilim olishiga bo'lgan qiziqishi va ehtiyojlarini qondiribgina qolmasdan, yuqori bilimga ega bo'lgan iqtidorli yoshlar yetishtirib berish vazifalarini ham hal etmoqda.

Sodiqova Saltanat Xoliqulovna Geografiya darslarida „Geografik maydonchadan“ foydalanishning amaliy ahamiyati mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishida mavzuga mos reja tanlangan va rejaga kiritilgan barcha boblar mavzuni mazmunan keng yoritib bergan Ishning tarkibi kirish, ikki bob, yetti bo'lim, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, bob va bo'limlar bir – birini to'ldirib uyg'unlashgan. Birinchi bobi Umumta'lim maktablarining tabiiy geografiya fanlarida o'tkaziladigan tajriba va kuzatish materiallariga asoslangan ta'limning ahamiyati. 3 ta kichik mavzular asosida yoritilgan bo'lsa, asosiy qismning II bobida Maktab tabiiy geografiya darslarida geografiya maydonchasida kuzatish, tajriba va amaliy ish darslarida foydalanish metodlari. 4 ta kichik mavzular asosida noan'anaviy dars ishlanmalaridan foydalanib atroflicha ochib berilgan.

Dars jarayonida 1 ta karta sxema, rasmlar, shartli belgilar, chizmalar, jadvallar, Muommoli topshiriqlar usuli va 2 ta ochiq dars ishlanmasi bitiruv malakaviy ishining mazmunini yanada boyitgan. Ushbu bitiruv malakaviy ishda nihoyatda qiziqarli va izlanishni talab etadigan, o'quvchini o'z ustida ishlashga majbur etadigan noan'anaviy dars metodlaridan foydalangan.

Malakaviy bitiruv ishi Davlat attestatsiya komissiyasi talablariga to'la mos keladi, ushbu ishni himoyaga tavsiya etaman.

8 maktab Geografiya fani o'qituvchisi:

O. Meliyeva.

Bitiruv malakaviy ishni baxolash mezonlari

Tabiatshunoslik fakul'teti "Iqtisodiyot" kafedrası.

Bitiruv malakaviy ishi himoyasi

Himoya vaqti: _____

Bitiruvchi: _____

Mavzuning dolzarbligi	Bajarilgan ishning mustaqillik darajasi	Amaliy ahamiyati	Adabiyotlardan foydalanish darajasi
12	32	16	10

Ishning rasmiylashtirilishi	BMI himoyasi	Umumiy ball	№
10	20	100	

DAK raisi: _____

DAK a'zolari: _____
